



NORASMIY TARJIMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan ta’lim maktab-internatlarining tuzilishi,
jihozlanishi, saqlanishi va o‘qitish tartibiga oid sanitariya qoidalari**

**O‘zbekiston Respublikasining
0313-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

S.S. Saidaliyev

26-avgust 2014-yil

**Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan ta’lim maktab-internatlarining tuzilishi,
jihozlanishi, saqlanishi va o‘qitish tartibiga oid sanitariya qoidalar**

**O‘zbekiston Respublikasining
0313-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014

ISHLAB CHIQUVCHI MUASSASALAR:

O‘zR SSV ResDSENM, O‘zR SSV SGKK ITI, TTA, Toshkent shahar DSENM, Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani DSENM

TUZUVCHILAR:

- Salixova N.S. – O‘zR SSV Respublika DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi mudiri
- Qosimov R.A. – O‘zR SSV Respublika DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi sanitariya vrachi, t.f.n.
- Sadivakasov A.U. – O‘zR SSV Respublika DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi sanitariya vrachi, t.f.n.
- Yuldasheva Z.R. – O‘zR SSV Respublika DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi sanitariya vrachi
- Basharova L.M. – O‘zR SSV SGETITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi
- Qo‘chqorova M.R. – O‘zR SSV SGETITI Aholi punktlarini, turar joy va jamoat binolarini rejalashtirish gigiyenasi laboratoriyasi mudiri, t.f.n., katta ilmiy xodim
- Azizova F.L. – TTA Bolalar, o‘smirlar gigiyenasi va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasida dotsenti
- Hasanova F.I. – Toshkent shahar DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi mudiri
- Lundina L.V. – Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani DSENM Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘linmasi mudiri

Taqrizchilar:

- Komilova R.T. - ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, O‘zR SSV SG va KK ITI bolalar va o‘smirlar gigiyenasi laboratoriyasi mudiri, t.f.d., professor
- Ermatov N.J. – TTA Oziqlanish gigiyenasi hamda bolalar va o‘smirlar gigiyenasi kafedrasida mudiri, t.f.d.
- Qalbayeva X.D. - O‘zR Xalq ta’limi vazirligi bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilish sektori rahbari, p.f.n.

Mazkur sanitariya qoidalari va normalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Insonni o‘rab turgan muhitning potensial noqulay omillarini reglamentlash bo‘yicha qo‘mitaning yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2014-yil 12-iyundagi 26-sonli bayonnoma).

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan (2014-yil 25-avgustdagi 6-24/32-10481/6-sonli xat).

Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyenik normativlariga rioya qilmaslik O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq intizomiy va ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunidan ko‘chirma

«Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlashning asosiy prinsiplari (2-modda). Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, alohida shaxslar tomonidan sanitariya normalari, gigiyenik normativlarga rioya etmaslik va sanitariya-epidemiya qarshi chora-tadbirlarni o‘tkazmaslik natijasida aholi salomatligiga va atrof-muhitga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlashning asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Obyektlarni loyihalash, qurish va foydalanishga topshirishda sanitariya talablariga rioya etishning majburiyligi (9-modda). Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar rahbarlari va ayrim shaxslar obyektlarni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, korxonalarni texnik qayta jihozlash va ularni ishga tushirishda sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga rioya etishlari shart.

Ta’lim sharoitlarini tartibga soluvchi sanitariya norma va qoidalariga rioya etishga doir talablar (17-modda). Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar umumta’lim muassasalarida va korxonalarda sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini ta’minlashi shart.

Sanitariya qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik (29-modda). Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor va boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur sanitariya qoidolari va normalari (keyingi o‘rinlarda – sanitariya qoidolari) “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 13-sentyabrdagi 256-sonli qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur sanitariya qoidolari faoliyati ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini (keyingi o‘rinlarda – maktab-internatlar) loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun majburiydir.

1.3. Sanitariya qoidolari jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan barcha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tatbiq etiladi.

1.4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiyaviy, korreksion va davolash-sog‘lomlashtirish muassasalari hisoblanib, jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarning bilish imkoniyatlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim va tarbiya olishiga yordam berish, buning uchun zarur sharoitlarni yaratish, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasiga ko‘maklashish, shuningdek, aholining ijtimoiy zaif qatlamlaridagi oilalarga bolalarni tarbiyalash va o‘qitishda yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etiladi.

1.5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘z ixtisosligiga ko‘ra quyidagi turlarga (I-VIII) bo‘linadi:

I – kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;

II – zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar uchun maktab-internatlar;

III – ko‘zi ojiz (ko‘r) bolalar uchun maktab-internatlar;

IV – zaif ko‘ruvchi va keyinchalik ko‘r bo‘lib qolgan bolalar uchun maktab-internatlar;

V – nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VI – tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VII tur — ruhiy rivojlanishi sust bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VIII tur — aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlar.

1.6. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalariga qatnamagan bolalarni maktabga tayyorlash maqsadida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktab-internatlar) qoshida bir va ikki yillik muddatli tayyorlov guruhlarini tashkil etilishi mumkin.

1.7. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatlarida tarbiyaviy, umumta'lim va kasb-hunarga tayyorlash ishlari rivojlanishdagi asosiy nuqsonni tuzatishga, shuningdek, yo'qotilgan funksiyalarni tiklash yoki kompensatsiya qilishga qaratilgan davolash-tiklash va sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birgalikda olib boriladi.

1.8. Muassasa ixtisosligiga qarab sinflar va tarbiya guruhlaridagi bolalar soni quyidagicha belgilangan (1, 2-jadvallar).

1-jadval

Ta'lim yo'nalishlari turlari va sinflardagi bolalar toifalari bo'yicha sinflarning to'ldirilishi

T/r	Ta'lim yo'nalishlari turlari va sinflardagi bolalar toifalari	Sinfdagi bolalar soni bo'yicha to'ldirilishi (ko'pi bilan)	
		Sinf	
		boshlang'ich	yuqori
1.	I va II turlar		
	kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	10
	zaif eshitadigan va keyinroq kar bo'lib qolgan bolalar uchun (1 va 2-bo'limlar)	10	12
2.	III va IV turlar		
	ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun	8	10
	zaif ko'radigan va keyinroq ko'r bo'lib qolgan bolalar uchun	10	12
3.	V tur		
	nutqida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
4.	VI tur		
	poliomiyelit asoratlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
	bolalar serebral falaji asoratlari bo'lgan bolalar uchun	10	10
5.	VII tur		
	ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun	12	16
6.	VIII tur		
	yengil darajadagi aqliy zaif bolalar uchun	13	13
	o'rta va og'ir darajadagi aqliy zaif bolalar uchun	11	11
	*barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 va undan ortiq nuqsoni bo'lgan) bolalar uchun	6	8

**Maktab-internat turiga qarab sinflardagi o'quvchilar va tarbiya
guruhlaridagi bolalar soni**

T/r	Bolalar ixtisoslashtirilgan muassasalarining turi	Sinf va guruhlardagi bolalar soni				
		sinf	guruh	yordamchi		sig‘imi
				sinf	guruh	
1.	Poliomiyelit asoratlari va miya falajligi bo‘lgan bolalar uchun	12	6-10	5-7	10-12	72-120
2.	Nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun	12	6-10	-	-	72-120
3.	Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun	12	6-10	5-7	10-12	72-120
4.	Kar, zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar uchun	12	6-10	5-7	10-12	72-120
5.	Aqliy zaif bolalar uchun	12	6-10	-	-	72-120

Izoh:

1. Sig'im mahalliy sharoitlarga ko'ra, loyihalash topshirig'i asosida belgilanadi.

2. 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yasli guruhlari loyihalash topshirig'ida ko'zda tutiladi.

3. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun guruhlar ixtisoslashtirilgan (asosiy to'rt tur bo'yicha) maktab-internatlar tarkibida tashkil etilishi mumkin.

2. Joylashtirish va hududga oid talablar

2.1. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar eng qulay tabiiy va gigiyenik sharoitlarga ega bo'lgan joylarda: alohida uchastkalarda, ko'kalamzorlashtirilgan tumanlarda, iloji bo'lsa, shahar atrofi hududida yoki bog'lar va kvartallar ichidagi yashil massivlar yaqinida; sanoat va kommunal korxonalar, temiryo'llar va transport harakati serqatnov yo'llardan, shuningdek, shovqin, havo va tuproq ifloslanishining boshqa manbalaridan uzoqda joylashtirilishi lozim. Uchastkani suv ta'minoti, elektr ta'minoti manbalari va muhandislik kommunikatsiyalariga nisbatan qulay joylashtirish tavsiya etiladi; u qulay kirish yo'llariga va jamoat transporti bekatlaridan kelish uchun qulay yo'laklarga ega bo'lishi kerak.

Internat muassasalarini loyihalash elektr uzatish liniyalari, radioeshittirish, uyali aloqa, televideniye, radiolokatsiyaning radiochastota diapazoni ta'sir qilmaydigan zonalarda loyiha topshiriqlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar audiometrik uskunalarning ishlashi buzilishi ehtimolini bartaraf etish uchun aholi punktining eng sokin tumanlarida, transport magistrallari va o'tish yo'llaridan, radiostansiyalar, radiorele qurilmalari (punktlari)dan uzoqda joylashtirilishi kerak.

2.3. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etishda bir hududda yagona majmuani (bolalar bog'chasi – maktab) ko'zda tutish tavsiya etiladi. Bu rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitishda uzviylikni yanada yaxshiroq ta'minlaydi. Ushbu tashkilotlarning har biri alohida binoda yoki blokda joylashtirilishi, bunda kichik yoshdagi bolalarni ham bino ichida, ham hududda alohidalash tamoyiliga qat'iy rioya qilinishi lozim.

2.4. Hududning umumiy maydonini, maydonchalar to'plamini va ularning jihozlanishini belgilashda har bir turdagi maktab-internat uchun hududdan ham sog'lomlashtirish-tiklash, ham o'quv-kasbiy tayyorgarlik maqsadlarida foydalanishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish zarur. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning hududlari o'yin maydonchalarining yanada rivojlangan tarkibini, o'quv-tajriba zonasining kattaroq maydonini, ayrim hollarda esa mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash uchun kengaytirilgan maydonchalar to'plamini, maxsus uskunalar va jihozlarni talab etadi. Bu, avvalo, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi va aqli zaif bolalar, shuningdek, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarga taalluqlidir.

2.5. Yer uchastkasining maydoni, tarkibiy elementlari va ularning maydonlari shaharsozlik normalariga muvofiq loyihalash topshirig'i asosida qabul qilinishi lozim.

Mahalliy sharoitlar va muassasalarning sig'imidan kelib chiqib, maydonchalar sonini ko'paytirishga yo'l qo'yiladi.

Maktab-internat tarkibida maktabgacha ta'lim guruhleri mavjud bo'lganda, yer uchastkasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ShNQ 2.08.05-08 talablarini hisobga olgan holda tegishli jihozlarga ega maydonchalar nazarda tutilishi lozim.

2.6. Yer uchastkasini zonalarga ajratishda alohida xonalar guruhlarining uchastkadagi tegishli zonalar va maydonchalar bilan qulay bog'lanishini hisobga olish lozim.

2.7. O'quv-tajriba zonasi maktab-internat binosidan kamida uning bir baravar balandligidagi masofada joylashtiriladi. Uni xiyobonlar va yo'laklar bilan ajratishga yo'l qo'yiladi.

2.8. Faol va sokin dam olish uchun mo'ljallangan o'yin maydonchalarini binoning o'quv-yashash va guruh xonalaridan chiqish yo'laklariga bevosita yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhimdir. Ko'rish, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan va aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilar uchun o'quv-yashash xonalarining uchastkadagi maydonchalar bilan bevosita qulay bog'lanishi majburiy hisoblanadi.

2.9. Sokin dam olish maydonchalarini sport zonasi va harakatli o'yinlar maydonchalaridan uzoqroqda joylashtirish hamda ularni buta va daraxtlar ekib ajratish tavsiya etiladi.

2.10. Xo'jalik zonasi uchastkaning boshqa zonalaridan ajratilgan bo'lishi, ishlab chiqarish xonalariga kirish tarafida joylashishi va ko'chaga alohida chiqish yo'lagiga ega bo'lishi kerak. Xo'jalik hovlisidagi xo'jalik qurilmalarini (xo'jalik korpusi, saroy, sabzavot saqlash ombori) namunaviy loyihalar asosida qurish tavsiya etiladi.

2.11. Shikastlanishning oldini olish maqsadida binoga yaqinlashish yo'llari, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning hudud ichidagi dam olish maydonchasi, sport va o'quv zonalariga olib boruvchi harakatlanish yo'nalishlari transport yo'llari bilan kesishmasligi lozim. Binoga olib boruvchi barcha kirish va o'tish yo'llari asfaltlangan yoki boshqa qattiq qoplamaga ega bo'lishi kerak.

2.12. Hududning kamida 50 foizi ko'kalamzorlashtirilishi shart. Hududni va alohida maydonchalarni rejalashtirish hamda jihozlashda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning faoliyati va jismoniy imkoniyatlari xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

2.13. Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, shuningdek, tayanch-harakat a'zolari faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan umumta'lim maktab-internatlarining hududlariga alohida talablar qo'yiladi:

a) tayanch-harakat a'zolari faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internat hududidagi yo'lakchalar va piyodalar yo'lkalarining nishabligi ko'pi bilan 5°, eni esa kamida 1,6 m bo'lishi ko'zda tutiladi. Burilish joylarida va har 6 metrdan keyin dam olish uchun maydonchalar bo'lishi kerak;

b) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun mo'ljallangan maydonchalarda bolalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash uchun sayr yo'lakchalarining eni kamida 2 m bo'lishi va ikki sathli ikki tomonlama to'siqqa ega bo'lishi kerak: tutqichlar 50-60 sm balandlikda va plankalar – 15 sm balandlikda yoki qo'ng'iroqchali arqonli to'siqlar. Bolalar yurganida to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ob'ektlar: daraxtlar, butalar, ustunlar va boshqalar uchun to'siqlar nazarda tutilishi kerak.

Burilishlar va chorrahalar yaqinida, binolar, ustunlar va boshqa to'siqlar yonida yo'lakchalar yirik donador qoplamali tuzilishga ega bo'lishi kerak (asfaltga

shag'al qo'shiladi). Qoplamaning g'adir-budur yuzasi yurishni sekinlashtirish uchun ishora bo'lib xizmat qiladi. Asfaltlangan yo'lakchalar o'z kengligiga qarab yoy shaklidagi profilga ega bo'lishi lozim (yo'lakchanning o'rtasi chetlaridan 5–7 sm balandroq bo'ladi). Ko'zi ojiz bolalarda mo'ljal olish ko'nikmasini shakllantirish uchun har xil hid taratuvchi daraxtlar (ignabargli, mevali va hokazo) ekish maqsadga muvofiqdir. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun esa mo'ljal sifatida yorqin gullar ekish mumkin.

2.14. Ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning jismoniy mashqlar va o'yin faoliyati uchun, makonni o'zlashtirishni yengillashtirish, harakatlar erkinligi va chaqqonligini rivojlantirish maqsadida, ayniqsa, ko'zi ojiz bolalarda tiklovchi tadbirlarni o'tkazish va kompensator reaksiyalarni rivojlantirish uchun, atrofi to'silgan, yuzasi tekis shibbalangan yoki maysa bilan qoplangan maxsus maydonchalar qurish zarur. Bunday maydonchalarga to'siq sifatida eni 15–20 sm bo'lgan ariqchalar qilish yoki, agar maydon maysazor bo'lsa, 1–1,5 m kenglikdagi yo'lak hosil qilib chimini olib tashlash, shibbalangan yuzalarda esa atrofiga chim yotqizish yoki maysa ekish tavsiya etiladi.

2.15. Devorlar, ustunlar va boshqa to'siqlar o'yin maydonchalari chegarasidan kamida 2,5–3 m masofada joylashishi kerak. Maydoncha atrofidagi himoya yo'lagi qiya (10–12° burchak ostida, eni kamida 3–3,5 m), o'yin maydonchasining uzunligi esa 10–20 m bo'lishi mumkin.

2.16. Har qanday yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning hududi balandligi kamida 1,7 m bo'lgan panjara bilan o'ralgan bo'lishi lozim.

2.17. Kechki paytda hududning yer sathida cho'g'lanma lampalar uchun 20 lk va lyuminescent lampalar uchun 40 lk me'yoridan kelib chiqqan holda sun'iy yoritish ta'minlanishi kerak.

3. Binolarga qo'yiladigan asosiy talablar

3.1. Har xil turdagi yangi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish amaldagi loyihalash me'yorlari va topshiriqlariga muvofiq ishlab chiqilgan loyihalar asosida amalga oshirilishi lozim.

3.2. Ixtisoslashtirilgan ta'lim maktab-internatlari sig'imiga ko'ra bir va ikki to'plamli bo'lishi mumkin (3, 4-ilova).

3.3. Amaldagi sanitariya va loyihalash me'yorlariga rioya qilingan holda, maktab-internatlarni bolalar bog'chasi bilan birlashtirishga (majmua sifatida) yo'l qo'yiladi.

3.4. Binolarning konstruktiv va hajmiy-rejalashtirish yechimlari amaldagi SHNQ 2.08.02-07 qurilish me'yorlariga mos kelishi kerak. Qurilish olib boriladigan hududlarning iqlimiy xususiyatlari QMQ 2.01.01-94 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizik-geologik ma'lumotlar"ga muvofiq hisobga olinishi lozim. O'zbekistonning

ma'muriy tumanlari bo'yicha qurilish-iqlim zonalari va kichik zonalari ro'yxati SHNQ 2.08.01-07 da keltirilgan.

I qurilish-iqlim zonasida – ekstremal sharoitlarga ega yarimcho'l va cho'l hududlarida kompozitsiyaviy va me'moriy-rejalashtirish yechimlari ortiqcha insolyatsiyadan hamda haddan tashqari qizib ketishdan, yozda issiq changli shamollardan va qishda sovuq shamollardan samarali himoyani ta'minlashi lozim. Binolar va inshootlarning ichki makonlarini noqulay tashqi ta'sirlardan maksimal darajada himoya qiladigan ixcham, kompozitsiyaviy-rejalashtirish yechimlarini, samarali quyosh va changdan himoyalovchi qurilmalarni, shuningdek, xonalarda qulay mikroiklim yaratish uchun texnik vositalarni qo'llash tavsiya etiladi.

II zonada – tog'oldi vohalarida bino va inshootlarning kompozitsiyaviy-rejalashtirish yechimlari qulay iqlim sharoitlaridan imkon qadar to'liq foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi, shu bilan birga, xonalarni soyalash va samarali tabiiy shamollatish, asosiy xonalarni obodonlashtirilgan ochiq maydonlar bilan o'zaro bog'lash hisobiga ortiqcha insolyatsiya va haddan tashqari qizib ketishdan himoya qilishi kerak.

III zonada – qishi uzoq davom etadigan tog'li hududlarda, avvalo, qish davrida bino xonalarining issiqlik himoyasini ta'minlashga qaratilgan ixcham kompozitsiyaviy-rejalashtirish yechimlarini qo'llash afzal ko'riladi.

3.5. Binoning kompozitsiyaviy yechimini tanlashda umumta'lim maktablari, maktab-internatlar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashning amaldagi me'yorlarida belgilangan o'quv xonalari, yotoqxonalar va boshqa xonalar derazalarining ufq tomonlariga nisbatan joylashuviga doir talablarga, shuningdek, 3-jadvalda ko'rsatilgan qo'shimcha talablarga rioya qilish lozim.

3.6. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xosligi hamda ta'lim muassasasi sharoitida davolash-tiklash chora-tadbirlari majmuasining o'tkazilishi asosiy xonalar tarkibining murakkablashishiga, maydon me'yorlarining kattalashishiga va ularning o'zaro joylashuviga oid maxsus talablarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

3.7. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi xonalarining tarkibi va maydoni 1, 2, 3, 4-ilovalarga muvofiq qabul qilinishi kerak.

3.8. Binolarning qavatliliigi maktab-internatlar tarbiyalanuvchilarining kontingentini (harakatlanishni qiyinlashtiradigan jismoniy rivojlanish nuqsonlari, harakatlar muvofiqligining buzilishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qligi va b.) hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

O‘quv xonalari, yotoqxonalar va boshqa xonalar derazalarining ufq tomonlariga nisbatan joylashuviga qo‘yiladigan talablar

T/r	Xonalarning nomi	Derazalarning joylashuvi	
		maqbul	yo‘l qo‘yiladigan
1	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun guruh xonalari, mashg‘ulot sinflari, logopediya xonasi, internat yotoqxonolari	J, JSH, SH	-
2	Biologiya laboratoriyasi	J, JSH, SH	JG‘
3	Shifokor xonalari (okulist, pediatr, psixiatr), pleopto-ortoptik xona	SHM	SH, SHSH, SHG‘
4	Chizmachilik, rangtasvir, haykaltaroshlik mashg‘ulotlari uchun xonalar	SHM	-
5	Oshxona bloki xonalari	SHM	-
6	Tibbiy muolaja xonalari, fizioterapiya kabinetlari	SHM, SHM-SH	G‘, SHM-G‘

Izoh: Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi, shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalarga mo‘ljallangan maktab-internatlarda sinfxonalar hamda boshqa o‘quv kabinetlari va laboratoriyalar, ko‘rish analizatoriga tushadigan katta yuklamani hisobga olgan holda, faqat optimal yo‘nalishga ega bo‘lishi kerak.

3.9. Zallardan tashqari barcha xonalarning balandligi (poldan yuqoridagi qavatning poliga qadar) 3,3 metrdan, sport zalining balandligi esa 6 metrdan kam bo‘lmasligi kerak. Majlislar zalining balandligi kinofilmlar namoyish etilganda normal ko‘rish imkoniyatini ta‘minlashi va kamida 4,5 metr, ovqatlanish zalining balandligi esa 3,6–4,2 metr bo‘lishi lozim.

3.10. Maktab-internatning ixtisoslashuvidan qat’i nazar, binoning loyihaviy yechimi binoni ikki asosiy funksional guruhdagi (o‘quv-turar joy va umumiy maktab) xonalarga aniq ajratishni ta‘minlashi lozim. Bunda ularning joylashuvi va foydalanilishining mustaqilligiga rioya qilgan holda o‘quv-turar joy va umumiy maktab xonalari guruhlari o‘rtasida qulay va qisqa bog‘lanishlar, shuningdek, umumiy maktab tadbirlarini o‘tkazish va karantin tashkil etish imkoniyati nazarda tutilishi kerak.

3.11. O‘quv-turar joy va umumiy maktab xonalari o‘z vazifalariga qarab mustaqil bloklarda joylashtirilishi kerak. O‘quv-turar joy bloklarida o‘tish yo‘laklari bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi; ular shovqin, chang va hid manbai bo‘lgan xonalardan ajratilgan (izolyatsiyalangan) bo‘lishi shart. O‘tish yo‘laklari umumiy maktab xonalari va hudud bilan qulay bog‘lanishga ega bo‘lishi kerak.

3.12. Foydalanish tartibi shovqin bilan kechadigan, shu sababli yashayotgan bolalarni bezovta qilishi va pedagogik, tibbiy yoki ma'muriy xodimlar ishiga xalaqit berishi yoxud uni buzishi mumkin bo'lgan xonalarni (nasos uskunalari bo'lgan qozonxonalar, ishlab chiqarish xonalari, ta'mirlash ustaxonalari, nasos bo'linmali sovitish kameralari, ventilyatsiya kameralari, kompressorxonalar, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va boshqalar) yotoqxonalar, o'quv xonalari, davolash-dagnostika xonalari bilan yonma-yon, shuningdek ularning ustida va ostida joylashtirish mumkin emas.

3.13. O'quv-yashash xonalari guruhiga o'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan xonalar (sinfxonalar), dam olish xonalari (rekreatsiyalar, mehmonxonalar), uxlash xonalari (yotoqxonalar), sanitariya tarmoqlari, kiyim va poyabzal tozalash xonasi, navbatchi tarbiyachi xonasi, shuningdek, muassasaning yo'nalishi va bolalarning yoshiga qarab yordamchi va boshqa xonalar kiradi.

3.14. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi o'quv va yashash xonalarini tayyorlov sinflarining o'quvchi-tarbiyalanuvchilari uchun sinflar va tarbiyachilar guruhlarining jamlanishiga bog'liq holda yosh tamoyili bo'yicha tabaqalashtirilgan o'quv-yashash bo'linmalari tipida guruhlash tavsiya etiladi.

3.15. Xonalarni (o'quv xonalari, rekreatsiyalar, yotoqxonalar, sanitariya tarmoqlari va boshqalar) bitta tayyorlov guruhi, I–III yoki I–IV sinflar uchun ikkita sinf guruhi, V–IX sinflar uchun ikki-uchta guruhga mo'ljallangan o'quv-yashash bo'linmalariga birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

3.16. Turli yosh guruhlaridagi tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan o'quv-yashash bo'linmalari o'tish yo'lagi bo'lmasligi, bir-biridan va umumiy foydalanishdagi xonalardan ajratilgan bo'lishi kerak.

3.17. O'quv-yashash xonalarini loyihalashda o'tishlarga sarflanadigan vaqtni maksimal darajada qisqartirish, bolalarning kuchini va dam olish vaqtini tejash, tarbiyachilarning bolalarni kuzatishini osonlashtirish hamda uy sharoitiga yaqin muhit yaratish uchun sinflar, dam olish va yotoqxonalar o'rtasida qulay va qisqa aloqalar ko'zda tutilishi lozim. Bu, ayniqsa, ko'rish, eshitish, tayanch-harakat apparati va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muhimdir.

3.18. O'rta va katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan o'quv-yashash majmualarida o'quv seksiyalari yotoqxonalardan (bir yoki ikki qavat doirasida) aniqroq ajratilishi kerak; o'g'il va qiz bolalar uchun yotoqxonalar alohida bloklarda yoki alohida qavatlarda joylashtiriladi (I–IV; V–IX sinf tarbiyalanuvchilari uchun o'quv-yashash xonalarining taxminiy tarkibi va maydonlari 1 va 2-ilovalarda keltirilgan).

3.19. Umumta'lim maktabi xonalari guruhi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: 1) o'quv kabinetlari va laboratoriyalar (ularni maxsus o'quv seksiyalariga guruhlash hamda o'rta va katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarning yotoqxonalar bilan

qulay bog‘langan alohida blokda joylashtirish tavsiya etiladi); 2) mehnat va kasbiy tayyorgarlik xonalari; 3) sport zali; 4) majlislar zali; 5) oshxona; 6) kutubxona/qiroatxona; 7) to‘garak xonalari; 8) tibbiyot xonalari; 9) ma‘muriy-xo‘jalik xonalari.

O‘quv xonalari

3.20. O‘quv xonalarining (sinflar, kabinetlar va laboratoriyalarning) maydoni va konfiguratsiyasi muassasa yo‘nalishidan kelib chiqqan holda, mebel va uskunalarning to‘g‘ri joylashtirilishini, o‘quvchilarning ko‘rish qobiliyati uchun qulay sharoitlarni (me‘yorlangan tabiiy yoritish darajalari va ko‘rish burchagi) hamda pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish uchun shart-sharoitlarni ta‘minlashi lozim.

Turli yo‘nalishdagi ixtisoslashtirilgan umumta‘lim maktab-internatlarida o‘quv xonalari maydoni bir o‘quvchiga 2 m² dan 3,5 m² gacha hisobda qabul qilinishi kerak;

aqli zaif va ruhiy rivojlanishi sust bo‘lgan bolalar uchun – 2,2 m²;

poliomiyelit asoratlari va bolalar serebral falajligi bo‘lgan bolalar uchun – 3,5 m²;

qolgan barcha bolalar uchun – 3 m².

hisobidan o‘quvchilarning yakka tartibdagi mashg‘ulotlari uchun xonalar ko‘zda tutilishi zarur.

3.22. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda yo‘nalishidan kelib chiqib, quyidagi qo‘shimcha kabinetlar ko‘zda tutilishi lozim:

kar, zaif eshituvchi va nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun – frontal mashg‘ulotlar uchun eshitish kabineti hamda o‘qituvchining o‘quvchi bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni o‘rgatish bo‘yicha yakka tartibda ishlashi uchun kabinetlar; oynali devor va xoreografiya dastgohlari bo‘lgan musiqiy-ritmik mashg‘ulotlar kabineti;

aqli zaif bolalar uchun – logopediya kabinetlari;

ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun – logopediya va lingafon kabinetlari, mashinkada yozish, elektrotexnika, loy ishlari va bo‘rtma rasm kabinetlari, musiqa, kompyuter texnikasi bilan yakka tartibda shug‘ullanish uchun xonalar.

3.23. Sinflar, kabinetlar, laboratoriyalar va auditoriyalarga kirish eshiklari bir tavaqali qilib yasalishi va o‘qituvchi stoli tomonidan joylashtirilishi kerak, bu ayniqsa tayanch-harakat apparati, ko‘rish qobiliyati va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor o‘quvchilar uchun muhimdir.

3.24. Barcha o‘quv va turar joy binolari yelvizakli shamollatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

3.25. O'quv-turar joy seksiyalaridagi dam olish-mehmonxonalari bir o'quvchiga kamida 1 m² maydon hisobidan zal ko'rinishida nazarda tutilishi lozim.

Yotoqxonalar

3.26. Yotoqxonalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv-turar joy bo'lmalarida joylashtiriladi yoki yoshiga qarab alohida yotoqxona seksiyalariga guruhlanadi. Yotoqxonalar yoshidan qat'i nazar o'g'il va qiz bolalar uchun alohida bo'lishi kerak.

3.27. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning barcha turlari uchun yotoqxonalar bolalarning yoshidan qat'i nazar 4 kishiga mo'ljallab loyihalanadi.

3.28. Yotoqxonalar maydoni poliomiyeit asoratlari va miya falajligi bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda bir tarbiyalanuvchiga 4,5 m² hisobidan va boshqa barcha turdagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar uchun 4 m² hisobidan olinadi.

3.29. Yotoqxonalar qoshida yuvinish xonalari, hojatxonalar, qizlar uchun shaxsiy gigiyena xonalari, dushxonalar, kiyim va poyabzal tozalash xonalari nazarda tutiladi.

3.30. Ochiq havoda uxlashni tashkil etish uchun tarbiyalanuvchilarning 50 foiziga mo'ljallangan, har bir o'ringa 3 m² maydon hisobidan ayvonlar qurish maqsadga muvofiqdir. Ayvonlardan tanaffus vaqtida sayr qilish uchun ham foydalanish mumkin, shu bois ular dam olish joylari va sinfxonalarga yaqin joylashtirilishi lozim.

Mehnat ta'limi xonalari

3.31. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mehnat ta'limi nafaqat o'quv va sog'lomlashtirish, balki psixologik ahamiyatga ham ega bo'lib, ularni mustaqil hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlaydi.

3.32. Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash maktab-internatning ustaxonalari va yer uchastkasida, tegishli imkoniyatlar mavjud bo'lganda esa sanoat korxonalari hamda qishloq xo'jaligi fermalari negizida olib boriladi.

3.33. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda boshlang'ich sinflar (I–III va I–IV) tarbiyalanuvchilariga mehnat ta'limi berish uchun o'quv-yashash xonalari blokida yoki unga yaqin joyda mehnat ta'limi va ijtimoiy foydali mehnat ustaxonasi tashkil etiladi. V–IX sinflar tarbiyalanuvchilari uchun esa ustaxonalar ko'zda tutiladi va ularning to'plami maktab-internat ixtisosligiga bog'liq bo'ladi. Yog'och va metallga ishlov berish ustaxonalaridan tashqari, kartonaj, tikuvchilik, muqovalash, trikotaj, shtamplash va boshqa ustaxonalar, shuningdek, kasbga yo'naltirish xonalarini nazarda tutish tavsiya etiladi. Ustaxonalarning maqsadi muassasa ixtisosligi, mahalliy sharoitlar hamda tegishli ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi bazalarining mavjudligiga qarab o'zgartirilishi mumkin. O'quv ustaxonalari alohida blokda joylashishi, o'quv xonalari va yer uchastkasi bilan qulay bog'lanishi lozim.

Ustaxonalar sinfning yarmi, ya'ni 6 nafar o'quvchi mashg'ulot o'tashi uchun mo'ljallanadi, aqli zaif bolalar uchun maktablarda esa har bir bolaga 6 m² hisobidan 8 nafar o'quvchiga mo'ljallab ko'zda tutiladi:

Dastgohli uskunalar bilan jihozlangan ustaxonalar faqat birinchi qavatda joylashtiriladi, bunda yog'ochga ishlov berish ustaxonalaridan bevosita tashqariga chiqiladigan qo'shimcha yo'lakni nazarda tutish zarur.

Asboblarning xonasi yog'och va metallga ishlov berish ustaxonalari bilan yonma-yon joylashtiriladi:

asbob-uskunalarini joylashtirishda quyidagilarni hisobga olish kerak: qatorlar (ustaxona bo'ylab yo'laklar) orasidagi taxminiy masofa kamida 130 sm (tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 170 sm gacha), dastgohlar orasidagi masofa — kamida 80 sm; dastgohlar va verstaklar orasida — 90 sm; verstaklar va dastgohlardan devorgacha — kamida 50 sm; duradgorlik ustaxonasida verstaklar orasida — kamida 80 sm bo'lishi lozim.

3.34. Har bir ustaxonaga issiq va sovuq suv tortilgan yuvinish chanoqlari o'rnatilishi kerak.

3.35. Ustaxonalar havo tortish-chiqarish ventilyatsiyasi hamda zamonaviy mahalliy chang tutgichlar va so'rish moslamalari bilan jihozlanadi.

Sport zali

3.36. Jismoniy tarbiyaning turli shakllarini tashkil etish uchun barcha maktab-internatlar, sig'imidan qat'i nazar, maydoni kamida 288 m² (12x24) bo'lgan sport zaliga; tibbiyot bloki qoshida davolash jismoniy tarbiyasi uchun kabinetlar yoki zallarga; jismoniy tarbiya va ritmika mashg'ulotlari, shuningdek, ko'zi ojiz bolalarda harakat va eshitish orqali mo'ljallanishni rivojlantirish uchun xonalarga ega bo'lishi shart.

3.37. Sport zali binoning birinchi qavatida yoki alohida turgan binoda joylashtiriladi hamda hududdagi sport maydonchasi bilan bevosita (yoki yo'lak orqali) qulay bog'lanishni ta'minlashi kerak.

3.38. Zalga tutash bo'lgan, o'g'il va qiz bolalar uchun alohida ajratilgan yechinish va dush xonalari zal bilan bevosita (yoki yo'lak orqali) bog'langan bo'lishi hamda surma eshikli shkafchalar yoki kiyim ilgichlar va kirish eshiklari yonida balandligi 1,75 m bo'lgan himoya to'siq-ekranlari bilan jihozlanishi kerak. Yechinish xonasi yonida sanitariya tarmog'i bo'lishi lozim. Sport zaliga faqat yechinish xonalari orqali kirilishi kerak.

3.39. Sport zali qoshida polda turadigan va osma sport anjomlarini saqlash uchun anjomxona nazarda tutiladi. Anjomxona poli zal poli bilan bir sathda, ostonasiz bo'lishi kerak.

3.40. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maktab-internatlarda gimnastika zalini loyihalash va jihozlashda ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarning

mo'ljal olish xususiyatlari hamda ularni to'g'ri yurish ko'nikmalariga o'rgatish zarurati hisobga olinishi kerak, shu munosabat bilan quyidagilarni nazarda tutish lozim:

zalni ikki hududga ajratish: kichigi – anjomlarda mashq qilish uchun anjomlar yoki gimnastika hududi va kattasi – o'yin faoliyati uchun asosiy hudud; bolalar mo'ljalni yo'qotmasligi uchun anjomlar qo'zg'almas qilib mahkamlanadi; zalning kichik qismidagi pol asosiy hudud polidan 6–7 sm balandroq (ko'tarilgan) bo'lishi kerak. Zalning asosiy qismidagi pol bir jinsli qoplamaga ega bo'lishi kerak;

zal devorlari bo'ylab perimetr bo'yicha hamda zalni ikki hududga ajratish uchun pol qoplamasining tebranuvchi yo'lagini o'rnatish; zal hududlari orasidagi tebranuvchi yo'lak zalning katta qismiga tomon 10-12° qiyalikda bo'lishi kerak; zalni ajratish uchun esa yuqoridan tushiriladigan, og'irliklar (qum solingan xaltachalar) bilan torttirilgan kapron to'rdan foydalaniladi;

ommaviy maktablarda umumiy qabul qilingan uskunalar (gimnastika devorlari, ot, halqalar, arqonlar, langarcho'plar, xoda, to'shaklar va b.), shuningdek, qo'shimcha uskunalar – har xil turdagi trenajyorlar, tennis va xokkey koptoklarini irg'itish uchun mo'ljallar va b.

3.41. Sog'lomlashtirish va davolash jismoniy tarbiyasi mashg'ulotlariga mo'ljallangan xonalar guruhida o'yinlar va umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun universal sport zali, trenajyorlar zali hamda suv osti dush-massaji va manual terapiya uchun yordamchi xonalar majmuasiga ega suzish havzasi nazarda tutilishi lozim.

3.42. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlarda suv osti dush-massaji va manual terapiya uchun yordamchi xonalar majmuasiga ega yopiq suzish havzasi bo'lishi kerak.

3.43. Havza vannasining uzunligi 12,5 m, eni esa 6 m bo'lishi kerak. 7-10 yoshli bolalar mashg'ulotlari uchun vanna chuqurligi 0,6 metrdan 0,85 metrgacha, 10-14 yoshli bolalar uchun esa 0,8 metrdan 1,06 metrgacha bo'lishi kerak. Dushxonadan havza zaliga tomon yo'nalishda joylashgan oyoq vannasining chuqurligi 0,1 metrdan kam bo'lmasligi lozim.

3.44. Basseyn kosasi atrofida bo'ylama devor bo'ylab eni kamida 2 m va yonbosh devor bo'ylab eni kamida 3,5 m bo'lgan aylanma yo'laklar quriladi. Aylanma yo'lakning tashqi tomoni pol sathidan kamida 1 m balandlikda to'siladi. Basseyn kosasining borti yo'lak sathidan kamida 0,4 m yuqorida bo'lishi kerak. Basseyn zali devori bo'ylab kattalar uchun pol sathidan 0,9 m, bolalar uchun esa 0,5 m balandlikda gorizontol tutqichlar o'rnatiladi.

3.45. Ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan suzish basseynida qo'shimcha ehtiyot choralari ko'zda tutilishi kerak: basseyn vannasining chetlari rezina bilan qoplanishi, vannaning sayoz qismi chuqur qismidan penoplastli cheklovchi to'siq va yukli to'r yordamida ajratilishi lozim; vannaga tushish uchun

panjarali ikkita qo'shimcha narvon qurilmasi nazarda tutiladi; vanna atrofida va devorlar bo'ylab panjaralar bo'lishi kerak.

3.46. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda bolalarning yoshi va harakatlanish doirasidagi jarohatlariga qarab chuqurligi sozlanadigan, ko'tariluvchi tubli yopiq suzish basseynini qurish lozim.

3.47. Nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlanishiga qulaylik yaratish uchun basseyn kosasining ichki devorlari bo'ylab suv sathidan yuqorida va pastda qo'shimcha tutqichlar, shuningdek, basseynning sayoz qismida balandligi 0,1 m va eni 0,75 m (lekin 0,45 m dan kam bo'lmagan) bo'lgan kamida 4 ta zina nazarda tutilishi kerak.

Basseyn xonalarining tarkibi va maydonlari 4-jadvalga muvofiq qabul qilinishi lozim.

Hovuz vannasidagi suvning hisobiy harorati 29°C, zaldagi havo harorati 30°C, kiyinish va dush xonalarida esa 25°C bo'lishi lozim, aylanma yo'lakchalar yuzasi – 30°C.

4-jadval

Hovuz xonalarining tarkibi va maydonlari

T/r	Xonalarning nomlanishi	Maydoni, m ²
1.	Vannali zal	120
2.	Kiyinish xonolari (o'g'il va qiz bolalar uchun)	20×2
3.	Kiyinish xonolari yonidagi dushxonalar	5×2
4.	Kiyinish xonolari yonidagi hojatxonalar	4×2
5.	Oyoq vannalari	(1,0×0,85) ×2
6.	Hovuzni boshqarish uzeli xonasi	8
7.	Anjomlar xonasi	8
8.	Yo'riqchilar xonasi	10
9.	Hamshira xonasi	6
10.	Xlorlash xonasi	8

Majlislar zali

3.48. Majlislar zali bir vaqtning o'zida tarbiyalanuvchilar umumiy sonining 75–100 foizini sig'dira olish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Maydoni bir o'rin uchun amaldagi me'yorlar bo'yicha olinadi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda zalning maydoni 80–100 nafar tarbiyalanuvchiga mo'ljallanib, bir o'rin uchun 0,65 m² dan, aqli zaif bolalar uchun esa bu me'yor 0,8 m² gacha oshiriladi.

3.49. Majlislar zalini kunduzi va kechqurun filmlar namoyish etilganda xonani qorong'ilashtirish uchun ekran oldi pardasi mexanizmi hamda deraza o'rinlarini to'sish mexanizmiga ega ekran bilan jihozlash tavsiya etiladi. Majlislar

zali qoshida kinoapparatxona va sahna ko'zda tutiladi. Sahna chuqurligi kamida 3 m qilib olinadi, sahna poli zal polidan 0,9 m baland ko'tarilgan bo'lishi lozim.

Oshxona

3.50. Oshxona xonalari 1-qavatda alohida blokga ajratiladi va xo'jalik hovlisiga alohida chiqish yo'lagiga ega bo'ladi. Agar maktab bir nechta binoda joylashgan bo'lsa, oshxonadan o'quv va yashash xonalariga yopiq o'tish yo'laklari bo'lishi kerak.

3.51. Oshxona xonalarining tarkibi va maydonlari xomashyo bilan ishlashga mo'ljallangan holda "Umumta'lim maktablari va maktab-internatlar" amaldagi qurilish me'yorlariga muvofiq belgilanadi. Bunda quyidagi qo'shimcha talablar inobatga olinadi:

ovqatlanish zalining maydoni, barcha tarbiyalanuvchilar ikki smenada ovqatlanishi sharti bilan, har bir o'rin uchun $1,3 \text{ m}^2$ hisobidan olinadi (ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktab-internatlarda – bir smenada);

yuvinish jihozlari ovqatlanish zalining yonidagi berk xonalarda yoki zalga olib boruvchi kengaytirilgan o'tish yo'laklari va koridorlarda (kengligi 3,6–4 m gacha) har 20 ta o'ringa 1 ta yuvinish jihozi hisobidan joylashtiriladi; ko'zi ojiz va yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun – har 10 ta o'ringa 1 ta yuvinish jihozi; aqli zaif bolalar uchun – har 15 ta o'ringa 1 ta yuvinish jihozi.

3.52. Maktabgacha va yordamchi guruhlar hamda kichik sinf o'quvchilari uchun ovqatlanish o'quv-yashash bo'linmalari yoki yashash va o'qitish seksiyalari qoshidagi bufet-tarqatish xonasi mavjud bo'lgan oshxonalarda tashkil etiladi. Ularning maydoni kamida 30 m^2 bo'lishi, idish yuvish uchun chanoqlar (rakovinalar) va quritgich, shuningdek, toza idishlar uchun javonlar nazarda tutilishi lozim. Oshxona mebellari tarbiyalanuvchilarning bo'yi va yoshiga oid ko'rsatkichlarga mos kelishi kerak.

Tibbiyot xonalari

3.53. Tibbiyot punkti birinchi qavatda, alohida blokda joylashtiriladi. Shifokor va muolaja xonalari o'quv-yashash va umummaktab xonalari bilan qulay bog'langan bo'lishi zarur. Izolyator tibbiyot punktining qolgan xonalaridan yuvinish jihozi bo'lgan dahliz (shlyuz) orqali ajratiladi va hovli hududiga alohida chiqish yo'lagiga ega bo'ladi.

3.54. Maktab-internatlar binolaridagi tibbiyot punkti nafaqat sog'lomlashtirish-profilaktika tadbirlarini tashkil etish, balki davolash va korreksion-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun ham mo'ljallangan bo'lib, bu (muassasa ixtisosligiga muvofiq) xonalarining kengaytirilgan tarkibini talab etadi. Bundan tashqari, asosiy nuqsonga yo'ldosh bo'lgan kasalliklarning xilma-xilligini hisobga olib, maktab-internatlarda umumiy turdagi maktab-internatlarga nisbatan bir qator qo'shimcha tibbiy xonalar va maxsus jihozlar ko'zda tutilishi zarur:

a) barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim maktab-internatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

barcha bolalar uchun yorug'lik bilan davolash hamda ko'rish va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun suv bilan davolash muolajalarini o'tkazishga mo'ljallangan fizioterapiya xonasi;

gimnastika va xoreografiya devorlari hamda stanoklari bilan jihozlangan davolash jismoniy tarbiyasi xonalari yoki zallari; ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mashqlar bajarilishini kuzatish va ko'rish analizatorini rivojlantirish maqsadida ko'zgular bo'lishi tavsiya etiladi;

logopediya xonasi;

b) tayanch-harakat apparati shikastlangan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda: DDT shifokori, nevropatolog, ortoped xonalari, protezlash xonasi, gips qo'yish xonasi, protez va poyabzal ta'mirlash ustaxonasi, mehnat terapiyasi, parafin bilan davolash, ozokerit va gidroterapiya xonalari;

v) aqli zaif bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda – psixiatr xonasi.

g) eshitishida nuqsoni bo'lgan, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda – audiometriya kabinasi bo'lgan otolaringolog kabineti, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha individual ishlash xonasi;

d) ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda – oftalmologiya kabineti, ko'rish qobiliyatini rivojlantirish va saqlanib qolgan qoldiq ko'rishni asrash uchun optik korreksiya vositalari kabineti.

Ozokerit, protezlash va gidroterapiya xonalarining pollari metlax plitalaridan bo'lishi lozim.

4. Tabiiy va sun'iy yoritish

4.1. Tabiiy yoritish QMQ 2.01.05-98 "Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalash me'yorlari" talablariga mos kelishi kerak.

4.2. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning barcha xonalari bevosita tabiiy yorug'lik bilan yoritilishi shart. Rekreatsiya hisoblanmaydigan o'tish yo'laklarini, oshxonaning yordamchi xonalari (omborxonalar, yuvish xonalari), gimnastika zallari qoshidagi kiyinish xonalari (ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlardan tashqari) ikkilamchi yorug'lik bilan yoritishga yo'l qo'yiladi.

4.3. Oshxonaning omborxona va maishiy xonalarida, xo'jalik va anjomlar omborlarida, snaryadxonada, dushxonalarda, gimnastika zali qoshidagi hojatxonada va xodimlar hojatxonasida yoritish sun'iy bo'lishi mumkin.

4.4. Barcha o'quv xonalari quyoshdan himoyalovchi vositalarni qo'llagan holda majburiy tarzda yondan, chap tomondan tabiiy yoritilishga ega bo'lishi kerak. Yorug'lik oqimini o'quvchilarning o'ng, old va orqa tomonidan yo'naltirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.5. Sinfxonalar, laboratoriyalar, kabinetlar, ustaxonalar, shuningdek, mehnat ta'limi va ko'rish ishi bilan bog'liq mashg'ulotlar uchun boshqa xonalarda tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti (TYoK) kamida 1,5% bo'lishi, ko'rish va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda esa kamida 2,5% bo'lishi lozim.

4.6. Quyosh nurlarining ko'zni qamashtirishi va doskada yorqin nur akslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun oynalar (doska tomondagi) oldingi chetki devorga 0,75 m yetkazib o'rnatilmaydi, bu, ayniqsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muhimdir.

4.7. O'quv xonalarida kunduzgi yorug'likdan maksimal darajada foydalanish va uni bir tekis taqsimlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

daraxtlar binodan kamida 10 m, butalar esa 5 m masofada ekilishi; binolar yaqinida o'sadigan daraxtlarning shoxlari har bahorda kaltalatib turilishi; deraza oynalarini bo'yoq bilan bo'ymaslik; deraza tokchalariga gul qo'ymaslik; pardalar (faqat paxta gazlamalardan – poplin, reps, shtapeldan) deraza oynalarini to'sib qo'ymaydigan qilib devor oralig'iga o'rnatilishi lozim.

4.8. Polivinilxlorid plyonkadan tikilgan pardalardan foydalanish taqiqlanadi.

Fizika, kimyo kabinetlari va kinozalni qorong'ilashtirishga mo'ljallangan pardalar ishlatilmagan holatida yorug'likni pasaytirmasligi kerak.

4.9. Deraza oynalari tashqi tomondan yiliga kamida 3-4 marta, ichki tomondan esa oyiga kamida bir marta tozalanishi va yuvilishi lozim.

4.10. O'quv xonalaridagi devor, shift, pol va jihozlar sirtlarini och rangli xira (matoviy) bo'yoqlar bilan bo'yash zarur: shift va devorning yuqori qismi (poldan 1,5 m balandda) – oq bo'yoq bilan, panellar (poldan 1,5 m gacha) – qaytarish koeffitsiyenti 0,25–0,30 bo'lgan och yashil, och sariq, sarg'ish, pushti ranglar bilan bo'yaladi;

4.11. Parta va stollarning ish sirtlarini bo'yash uchun qaytarish koeffitsiyenti 0,11 dan 0,45 gacha bo'lgan ranglar gammasi (och yashildan to'q yashilgacha yoki tabiiy yog'och rangi) qo'llanilishi lozim; sinf doskasi uchun qaytarish koeffitsiyenti 0,10–0,30 bo'lgan to'q yashil yoki to'q jigarranglardan foydalanish kerak; eshiklar, deraza romlari va ularning tutashtirmalari oq moyli bo'yoq bilan bo'yaladi.

4.12. Ko'rish va eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlar binolarida ko'rish ishlari uchun tabiiy va sun'iy yoritishning optimal sharoitlarini yaratish zarur. Bunda ko'rish qobiliyati zaif bolalarda ko'rish analizatoriga tushadigan katta yuklama hamda kar va zaif eshituvchi bolalarning o'quv jarayonida ko'rish qobiliyatining muhim kompensatorlik (o'rnini bosuvchi)

roli hisobga olinishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan talablardan tashqari, o'quv xonalarini faqat ufqning bir, eng maqbul tomoniga (Janubi-Sharq, Janubi-G'arb) yo'naltirgan holda, yo'laklar va dam olish joylarini bir tomonlama qurishni nazarda tutish lozim. Shifokor xonalari, pleopto-ortooptik xona, tasviriy san'at, rassomlik, chizmachilik, haykaltaroshlik kabinetlari hamda oshxona blokining derazalarini shimolga yo'naltirishga ruxsat etiladi. Maxsus maktab-internatlarning qolgan xonalari esa hech qanday cheklovlarisiz yo'naltirilishi mumkin.

4.13. Barcha ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatlarining o'quv va yotoq xonalarida, barcha iqlim hududlarida deraza romlari orasiga o'rnatiladigan ko'tarma-buriluvchi jalyuzilar kabi quyoshdan himoyalovchi moslamalar nazarda tutilishi lozim.

4.14. Ko'rish va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan, sun'iy yoritishning yanada yuqori darajalarini ta'minlash zarur bo'lgan maktab-internatlar bundan mustasno, barcha ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatlarida sun'iy yoritish va elektrotexnika qurilmalari "Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalash me'yorlari" bobining talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

4.15. Har xil turdagi maktab-internat xonalarida sun'iy yoritish darajalarining yo'l qo'yiladigan eng kichik qiymatlari 5-ildavda keltirilgan.

4.16. O'quv xonalarida yoritgichlarni qatorlar (partalar, stollar) bo'yicha alohida yoqish imkonini beruvchi umumiy yoritish tizimlari hamda sinf doskasini mahalliy yoritish (yoritib turish) tizimlari qo'llanilishi kerak. Lyuminescent yoritishda yorug'lik oqimi pulsatsiyasini kamaytirish uchun o'quv xonalaridagi har bir yoritgichlar qatoriga uchtdan alohida sim tortish tavsiya etiladi.

4.17. Ustaxonalar, o'qituvchilar xonasi, direktor xonasi, shifokorlar xonalari va boshqa xonalar, ulardan foydalanish xususiyatiga qarab, umumiy yoritishdan tashqari, mahalliy yoritish bilan ham jihozlanadi.

4.18. Logopediya xonalarida ko'zgu yoniga yorug'likning qiyalik burchagi va balandligini o'zgartirish imkonini beruvchi kronshteynlarga mahalliy yoritish uchun mo'ljallangan devor chiroqlari o'rnatilishi kerak.

4.19. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun mo'ljallangan maktablarda o'quv xonalari (sinflar, laboratoriyalar, ustaxonalar) hamda qiroatxonalar cho'g'lanma lampali sun'iy yoritishning kombinatsiyalashgan tizimi bilan jihozlanishi kerak. Umumiy va mahalliy yoritishning umumiy yoritilganlik darajasi ko'rish patologiyasining turiga qarab tabaqalashtirilishi va quyidagilarni tashkil etishi lozim: yuqori darajada asoratlangan miopiya va gipermetropiyaga chalingan o'quvchilar uchun – 1000 lk; ko'z to'r pardasi va ko'rish nervi shikastlangan (yorug'likdan qo'rqmaydigan) bolalar uchun – 1000-1500 lk; yorug'likdan qo'rqish (fotofobiya) holati kuzatiladigan o'quvchilar uchun – 500 lk dan ko'p bo'lmagan. Umumiy yoritish tizimidan tushadigan sun'iy yorug'lik darajasi 400 lyuksdan

oshmasligi kerak. Yorug'likdan qo'rqadigan o'quvchilarga qulay yoritish sharoitlarini yaratish uchun ularning o'quv stollari (partalari) ustidagi umumiy yoritish chiroqlarining alohida guruhlarini majburiy ravishda alohida yoqish imkoniyati nazarda tutilishi lozim. Har bir ish o'rni 40 Vt quvvatli cho'g'lanma lampaga ega mahalliy yoritgich bilan jihozlanishi shart. Yoritgichlar stol yuzasiga qattiq mahkamlanishi va yorug'lik manbasining qiyalik burchagi hamda balandligini o'zgartirish imkonini beradigan egiluvchan kronshteynga ega bo'lishi kerak. Xavfsizlik maqsadida elektr simlari yashirin o'tkazilishi nazarda tutilishi zarur. Sun'iy yoritish manbalarini aralashtirishga, ya'ni bir xonada lyuminestsent lampalar va cho'g'lanma lampalardan bir vaqtda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

4.20. Sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalarining ruxsatisiz yangi turdagi lampalar va yoritish uskunalaridan foydalanish taqiqlanadi.

4.21. O'quv xonalaridagi lyuminestsent chiroqlar derazalar qatoriga parallel ravishda o'rnatiladi. Chiroqlarning joylashuviga oid umumiy talablar "Umumta'lim maktablarining tuzilishi va saqlanishiga doir sanitariya qoidalari" talablariga mos kelishi kerak. Chiroqlar kamida 3 oyda bir marta tozalanadi; yoritish moslamalarini tozalashga o'quvchilarni jalb etish taqiqlanadi.

4.22. Vestibyullarda, yo'laklarda, dam olish joylarida, gimnastika va majlislar zallarida, o'quv ustaxonalarida, zinapoyalarda polga, asosiy o'tish yo'llari chizig'i bo'ylab va zina pog'onalariga avariya yoritish (kamida 5 lk) o'rnatilishi lozim.

4.23. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda, ularning yo'nalishidan kelib chiqib, yuqorida sanab o'tilgan shartlardan tashqari, qo'shimcha qurilmalar va elektr jihozlari nazarda tutilishi kerak:

a) ko'zi ojiz va zaif ko'radigan bolalar uchun — joylashtiriladigan uskunalariga muvofiq qo'shimcha shtepsel rozetkalari (oftalmologiya xonalarida va ularga tutash xonalarda);

b) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun — o'quv xonalarida texnik o'qitish vositalaridan foydalanish uchun rozetkalar (pol sirtidan 1,8 m balandlikda, apparatura avtomatik tarzda ulanadigan); doska ustidagi yoritgichdan tashqari, pedagoglarning o'quvchilar bilan yakka tartibdagi mashg'ulotlari o'tkaziladigan joylardagi oyna yonida (chapda, o'ngda, tepada) nur tarqatuvchi yoritgichlar; o'qituvchi stolining boshqaruv pultidan texnik apparatura bilan jihozlangan o'quvchilar stollarigacha kuchlanishi past tok liniyalari uchun kanallar; gimnastika zalida magnit-induksion halqa; yorug'lik signallari tizimi; avtomatik o'chirgichlar, yerga ulash klemmalari nazarda tutiladi.

4.24. Surdotexnika uskunolari o'rnatilgan xonalarda himoyaviy yerga ulash ta'minlanishi lozim.

4.25. Aqli zaif bolalar uchun mo'ljallangan muassasalarda yotoqxonalaridan tibbiyot xonasiga va navbatchi tarbiyachi xonasiga olib boruvchi ovozli va yorug'lik signallari tizimi ko'zda tutiladi.

Ovoz kuchaytirgich apparaturalardan foydalanilganda aks-sadoning (reverberatsiya) oldini olish uchun qavatlararo yopmalar va devorlarning ovoz izolyatsiyasi nazarda tutilishi zarur (qavatlararo yopmalar va devorlar yuqori darajada ovoz o'tkazmaslik xususiyatiga ega bo'lishi kerak).

5. Xonalarni jihozlash

5.1. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni jihozlash o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv uskunalarining amaldagi namunaviy ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2. Maktab mebellari va xona jihozlari pedagogik jarayon hamda davolash-tiklash tadbirlarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini inobatga olishi, shuningdek, bolalarning bo'yi va yoshiga oid xususiyatlariga mos kelishi lozim.

5.3. Maktab mebeli va jihozlarining o'lchamlari hamda joylashtirilishiga qo'yiladigan gigiyenik talablar amaldagi sanitariya me'yorlariga, shuningdek, turli yo'nalishdagi maktab-internatlar uchun belgilangan qo'shimcha gigiyenik talablarga mos kelishi kerak:

a) ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun mo'ljallangan o'quv xonalariga parametrlari sozlanadigan bir o'rinli universal parta va stollar qo'yish tavsiya etiladi; o'qish vaqtida parta yoki stol qopqog'ining qiyaligini o'zgartirish imkoni bo'lmasa, gorizontal yuzaga nisbatan 30–40° burchak ostida qiya qilib o'rnatiladigan tagliklardan (qalin karton va faneradan yasalgan) foydalanish mumkin.

Ko'zi ojiz bolalar uchun xonalar gorizontal taxtali stollar bilan jihozlanadi. Ularning o'lchami va maxsus moslamalari Brayl alifbosidagi darsliklar bilan ishlash hamda ularni saqlash imkonini berishi lozim. Umumiy qabul qilingan maktab jihozlaridan tashqari, o'quv materialini o'rganish va idrok etishni yengillashtiradigan qo'shimcha asbob-uskunalar va qo'llanmalar to'plami tavsiya etiladi (Brayl alifbosida yozish uchun asboblari, yassi yozuv uchun asboblari, Brayl tizimida matn terish uchun yozuv mashinkalari); ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning qoldiq ko'rish qobiliyatidan foydalanish uchun maxsus optik uskunalari (Brayl asbobi, sinf doskasida rasmlarni frontal namoyish qilish uchun doska-ekran; ortoskopik ustki lupa, planosferik qator lupasi) va boshqalar.

b) aqli zaif bolalar uchun mo'ljallangan o'quv xonalariga, ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, burchaklari yumaloqlangan (o'tmaslashtirilgan), tuzilishi oddiy va mustahkam bo'lgan bir o'rinli stollar o'rnatilishi kerak;

v) eshitishida nuqsoni bo'lgan (kar, zaif eshituvchi) va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'quv xonalariga quyidagilar tavsiya etiladi:

individual pultlar (mikrofon to'plami, eshitish qurilmasi) bilan jihozlangan bir o'rinli o'quvchi stollari;

har bir o'quvchi stolining boshqaruv pultiga past kuchlanishli liniya tortilgan, boshqaruv pulti (kuchaytirgich va kommutator bilan) mavjud bo'lgan o'qituvchi stoli. Eshitish uskunalari o'quvchilar va o'qituvchining qotirib o'rnatilgan stollariga montaj qilinadi;

tovush kuchaytirgich apparaturasi (jamoaviy foydalanish uchun tovush kuchaytirgich apparatura to'plami va quvvati 220 V kuchlanishli o'zgaruvchan tok tarmog'idan olinadigan individual kuchaytirgich). Tovush kuchaytirgich apparaturadan foydalanilganda tovush reverberatsiyasini bartaraf etish uchun qavatlararo yopmalar va devorlarning tovushdan izolyatsiyalanishini nazarda tutish zarur;

o'qituvchining bir yoki ikki nafar o'quvchi bilan frontal individual ishlashi uchun uskunalar: o'qituvchi uchun stul va logopedik oyna (o'qituvchi stoli ustida va devorda) o'rnatilgan stol hamda o'quvchilar uchun stullar, zondlar to'plami, shpatellar va o'qituvchining yuzini to'sish uchun ekran;

filmlar, diapozitivlar va diafilmlarni namoyish etish uchun ekran; nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun ko'rgazmali qo'llanmalar;

g) tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun mo'ljallangan o'quv xonalarida mashg'ulotlar o'tkazishga qulay bo'lgan maxsus mebellar nazarda tutiladi.

5.4. Sinflar, laboratoriyalar va kabinetlardagi o'quv mebellari hamda jihozlari asosiy yorug'lik tushadigan darchalar o'quvchilarning faqat chap tomonida qoladigan qilib joylashtiriladi. Bunda "ko'rish burchagi" (o'quvchining nigoh chizig'i va sinf doskasi tekisligi orasida hosil bo'ladigan gorizontal burchak) kamida 45 darajani tashkil etishi lozim.

5.5. Namoyish etilayotgan usullar yoki materialni idrok etishni osonlashtirish maqsadida (mashg'ulotlarning xususiyati va pedagogik jarayon sharoitlaridan kelib chiqib) boshqacha joylashtirish talab etilmagan hollarda, o'quv xonalaridagi parta va stollar, qoida tariqasida, sinf bo'ylab ikki-uch qator qilib (yorug'lik chapdan tushadigan tarzda) o'rnatilishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'quv jarayonining o'ziga xosligi parta va stollarni o'qituvchi stoli atrofida yarim doira shaklida joylashtirishni, eshitish apparaturasini o'rnatish uchun ularni bir joyda qotirib qo'yishni, dars vaqtida o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanish zarurati tufayli har bir qatordagi stollar va partalar orasidagi masofani kengaytirishni talab qiladi.

5.6. Tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun mo'ljallangan o'quv xonalarida stollar va partalar qatorlari orasidagi masofani kengaytirish zarur. Ko'rish o'tkirligi 0,1 gacha bo'lgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun partalar (stollar) o'lchamidan qat'i nazar, o'qituvchi va doskaga yaqinroq o'rnatilishi kerak. Yorug'likdan qo'rqadigan bolalar uchun esa parta va stollarni derazalar hamda yorug'lik manbalaridan uzoqroq joylashtirish tavsiya etiladi.

5.7. Duradgorlik ustaxonasidagi ish o'rinlari (verstaklar) derazalarga perpendikulyar yoki $30-40^\circ$ burchak ostida joylashtirilishi kerak. Bunda ish o'rinlari orasidagi masofa kamida 80 sm, dastgohlar bilan ish o'rinlari orasidagi masofa kamida 90 sm, dastgohlardan devorlarga bo'lgan masofa esa kamida 50 sm bo'lishi lozim. Chilangarlik ustaxonasidagi verstak-dastgohlar derazalar bo'ylab bir yoki ikki qatorda o'rnatiladi va qatorlar orasidagi masofa (ustaxona bo'ylab o'tish yo'laklari) 1,2 metrdan 1,7 metrgacha bo'lishi kerak. Tikuvchilik ustaxonasidagi oyoq bilan ishlaydigan tikuv mashinalari derazalar bo'ylab bir qatorda joylashtiriladi, bunda yorug'lik mashina lapkasiga chap tomondan tushishi lozim.

5.8. Barcha ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda I–IV sinf tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan xonalarda, laboratoriyalarda, o'quv kabinetlarida, ustaxonalarda, shifokorlar kabinetlarida va boshqa tibbiyot xonalarida, shuningdek o'qituvchilar va xodimlar xonasida bittadan qo'lyuvgich ko'zda tutilishi kerak. Oshxona va bolalarning bo'lishi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xonalarda esa ularning soni umumta'lim maktablari uchun belgilangan me'yorlar asosida hisoblanadi.

5.9. O'quv va yashash binolaridagi sanitariya-maishiy xonalar yotoqxonalar va sinfxonalarga bevosita yaqin joyda joylashtirilishi kerak.

5.10. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning sanitariya-maishiy xonalaridagi sanitariya jihozlari va gigiyena vositalari sonini muassasaning yo'nalishini hisobga olgan holda hisoblash tavsiya etiladi:

a) tayanch-harakat apparati faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda quyidagilarni o'rnatish lozim:

o'quv-turar joy bo'lmalarida: 8 nafar qizga 1 ta unitaz, 12 nafar o'g'il bolaga 1 ta pissuar va 8 nafar o'g'il bolaga 1 ta unitaz, 6 kishiga 1 ta yuvinish chanoqlari (umivalnik) hamda 12 kishiga bitta oyoq vannasi; gigiyenik dushxonalar – 10 nafar tarbiyalanuvchiga 1 ta dush to'ri hisobidan; qizlar gigiyena xonasi – 50 kishiga 1 ta hisobidan;

umumiy maktab xonalarida: 20 nafar qizga 1 ta unitaz va 30 nafar qizga 1 ta yuvinish chanoqlari (umivalnik); 30 nafar o'g'il bolaga 1 ta unitaz, 0,5 m tarnovli pissuar va 1 ta yuvinish chanoqlari (umivalnik); maktab-internat xodimlari uchun har birida yuvinish chanoqlari (umivalnik) bo'lgan 1 ta unitazga mo'ljallangan kamida 2 ta hojatxona;

b) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maktab-internatlarning sanitariya tarmoqlarida quyidagilar o'rnatilishi kerak:

o'quv-turar joy bo'lmalarida: 8 nafar qizga bitta unitaz, 10 nafar o'g'il bolaga bitta unitaz va 0,5 m tarnovli pissuar; 3 nafar tarbiyalanuvchiga (o'g'il bolalar, qizlar) bitta yuvinish chanoqlari (umivalnik); 6 nafar tarbiyalanuvchiga bitta oyoq vannasi, 30 nafar qizga bitta qizlar gigiyena xonasi; o'quv bloki uchun xodimlarga bitta hojatxona (bitta unitaz va bitta yuvinish chanoqlari); gigiyenik dushxonalar – 12 nafar tarbiyalanuvchiga bitta dush to'ri hisobidan; dushxona yonida – o'g'il va qiz bolalar uchun alohida, bitta unitaz va bitta yuvinish chanoqlari bo'lgan hojatxonali ikkita vanna;

umumiy maktab xonalarida: 20 nafar qizga bitta unitaz va 30 nafar qizga bitta yuvinish chanoqlari (umivalnik); 30 nafar o'g'il bolaga bitta yuvinish chanoqlari (umivalnik), bitta unitaz va 0,5 m tarnovli pissuar; o'quv-turar joy blokiga xodimlar uchun bitta hojatxona. Tarnovli pissuarlar va unitazlar yonida mahkamlovchi tutqichlar bo'lishi kerak.

v) kar, zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda quyidagilar o'rnatilishi kerak:

o'quv-yotoq bo'lmalarida: 15 nafar qizga bitta unitaz; 20 nafar o'g'il bolaga bitta unitaz va bitta pissuar; 8 nafar tarbiyalanuvchiga bitta yuz-qo'l yuvgich; 12 nafar tarbiyalanuvchiga bitta oyoq vannasi; 70 nafar qizga bitta gigiyenik kabina; maktab-internat xodimlari uchun ikkita hojatxona; gigiyenik dushxonalar – har 18 nafar tarbiyalanuvchiga bitta dush to'ri hisobidan, dushxona yonida o'g'il va qiz bolalar uchun alohida bittadan vanna hamda unitaz va yuz-qo'l yuvgichli bittadan hojatxona bo'lishi kerak;

umumta'lim xonalarida – umumta'lim maktab-internatlari uchun belgilangan me'yorlar bo'yicha;

g) aqli zaif bolalar uchun maktab-internatlarda:

umumta'lim xonalarida: 20 nafar qizga bitta unitaz va 40 nafar qizga bitta yuz-qo'l yuvgich; 30 nafar o'g'il bolaga bitta unitaz va bitta pissuar, 40 nafar o'g'il bolaga bitta yuz-qo'l yuvgich; xodimlar uchun – har birida bitta unitaz va bitta yuz-qo'l yuvgich bo'lgan hojatxonalar bo'lishi kerak;

o'quv-yotoq bo'lmalarida: 8 nafar qizga bitta unitaz; 10 nafar o'g'il bolaga bitta unitaz va bitta pissuar; 4 nafar tarbiyalanuvchiga bitta yuz-qo'l yuvgich; 8 nafar tarbiyalanuvchiga bitta oyoq vannasi; 35 nafar qizga bitta gigiyenik kabina; gigiyenik dush – har 16 nafar tarbiyalanuvchiga bitta dush to'ri hisobidan; o'g'il bolalar va qizlar uchun mo'ljallangan dushxonalarda yuz-qo'l yuvgichli bittadan vanna va bittadan hojatxona nazarda tutiladi.

5.11. Rivojlanishida nuqsoni bor, harakatlanishi va fazoda mo'ljall olishi qiyin bo'lgan (ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bor)

bolalarga mo'ljallangan maktab-internat binolarining o'quv, yashash, yordamchi va boshqa xonalarida ularning harakatlanishi, fazoda mo'ljall olishi hamda turli asbob, apparat va uskunalardan foydalanishini ta'minlaydigan va yengillashtiradigan maxsus moslamalar nazarda tutilishi lozim;

a) tayanch-harakat apparati shikastlangan (poliomiyelit asoratlari va miya falajligi bo'lgan yoki tug'ma nuqsonli) bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlarda liftlar, nishabligi 1:6 bo'lgan panduslar, nishabligi 1:3 (balandlikning uzunlikka nisbati) bo'lgan zinapoyalar ko'zda tutilishi kerak. Zinapoyalar ikki darajada — 0,9 m balandlikda va qo'shimcha ravishda 0,5 m balandlikda pastki tutqich o'rnatilgan ikki tomonlama panjaralar bilan jihozlanishi lozim. Panduslar rezina qoplamaga ega bo'lishi shart;

b) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlarda: binoning loyihaviy yechimi o'quvchilarning erkin mo'ljall olishini ta'minlashi kerak;

yangi qurilishda loyihaviy yechimlar bolalar turadigan xonalarda ichki ustunlar bo'lishini istisno qilishi lozim; mavjud binolardagi ustunlar esa dumaloq kesimli bo'lishi shart;

zinapoyalar ikki tomonlama panjaralar va balandligi 1,8 m bo'lgan to'siq yoki yaxlit to'rtli to'siq bilan jihozlanishi kerak;

bolalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida zinapoyalar o'rniga imkon qadar turli balandlikdagi tutqichlar bilan jihozlangan panduslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

pol qoplamasi uchun material tovushni yaxshi o'tkazmaydigan, gigiyenik (oson tozalanadigan), rangi esa devorlar, zinapoyalar va panduslarga nisbatan kontrastli bo'lishi lozim;

xonalarning devorlari uchun mo'ljallangan materiallar, ularning vazifasiga qarab, turli fakturali (ishlov berilgan g'isht, beton, yog'och) va har xil rangda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

5.12. Bino ichidagi barcha xavfli hududlar (yo'laklarning oxirgi devorlari, xona ichidagi ustunlar, turtib chiqqan qismlar va b.) qizil rangga (yoki oq chiziqlar tushirilgan qizil rangga) bo'yalishi kerak; bo'yoq yuzasi yaltiramaydigan, jilosiz bo'lishi lozim;

devorlarni ko'k va binafsha ranglarga bo'yashga yo'l qo'yilmaydi.

5.13. Xonalardagi havo-issiqlik rejimi asosan umumta'lim maktablarini qurish va saqlash bo'yicha amaldagi sanitariya qoidalari talablariga mos kelishi kerak.

5.14. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar xonalarida havoning nisbiy namligi 40-60 % bo'lishi kerak; havo harorati ko'rsatkichlari iqlim sharoitlari, xonalarning maqsadi va bolalarning yoshiga qarab, ko'rish qobiliyati va tayanch-

harakat apparatida nuqsoni bo'lgan kichik maktab yoshidagi bolalar uchun umumta'lim maktab-internatlariga belgilangan me'yorlardan 1-2 °C ga oshirilgan holda qabul qilinishi lozim (5-jadval).

5.15. Isitish moslamalari sifatida radiatorlar, quvurli isitish elementlari, beton panellarga o'rnatilgan registrlar qo'llanilishi mumkin, konvektorlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Isitish moslamalari olinadigan yog'och panjaralar bilan to'silishi va deraza ostida joylashtirilishi lozim. Yog'och-qirindili plitalar va boshqa polimer materiallardan to'siqlar o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi (sport va majlislar zallariga nisbatan majburiy tartibda).

Butun xonada to'liq havo almashinuvini ta'minlash uchun tashqi derazalarning yuqori qismida maxsus moslamalar (fiksatorlar) o'rnatilgan fortochkalar yoki pastga ochiladigan framugalar nazarda tutilishi kerak. Har qanday xonadagi ochiladigan fortochka va framugalarning umumiy maydoni pol maydonining 1/50 qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatlarining barcha xonalarining sanitariya holati va ularni saqlash amaldagi sanitariya normalariga mos kelishi kerak.

**Turli yoʻnalishdagi jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni boʻlgan
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan bir komplektli maktab-internatlarning
xonalari tarkibi va maydoni**

№	Xonalar nomi	Bolalar uchun maydon, m ²			
		koʻzi ojiz va zaif koʻruv- chilar	kar, zaif eshituvchi, nutqida nuqsoni boʻlganlar	aqli zaiflar	tayanch-harakat apparati shikastlanganlar
1	2	3	4	5	6
I. Oʻquv-yotoqxona xonalari guruhi					
A. I-IV sinf oʻquvchilari uchun oʻquv-yotoqxona boʻlmasi (ikki sinf uchun)					
1.	Sinf xonasi	36x2	36x4	36x4	36x2
2.	Yakka tartibdagi mashgʻulotlar uchun joy ajratilgan laborant xonasi	-	24 (12x2)	-	-
3.	Mehmonxona-dam olish xonasi	24	24x2=48		32
4.	Oʻyin xonasi	18	20x4=80	24x4=96	16
5.	Ochiq ayvon	17			23
6.	Yotoqxonalar m ² /oʻquvchiga)	(4 96	42x4=168	16x4=64	16
7.	Har bir juft yotoqxona uchun dushxonalar va qizlar uchun shaxsiy-gigiyena kabinasiga ega sanitariya tarmogʻi		12x4=48	72	-
8.	Quritgichli vestibyul va gardero	12	12	8x4=32	16
9.	Kiyim-kechak va poyabzal tozalash xonasi	6	-	-	6
10.	Shaxsiy buyumlarni saqlash omborchasi bilan navbatchi tarbiyachi xonasi	8	-	-	8
11.	Texnik xodimlar ombori	6	-	-	6
B. V - VII sinf oʻquvchilari uchun oʻquv-turar joy bloki (2-4 ta sinf uchun)					
1.	Sinxona	36x2	36x2	-	36x4
2.	Yakka tartibdagi mashgʻulotlar xonasi	-	6x4=24	-	-
3.	Shkaf va yakka tartibda ishlash uchun joyga ega-laborant xonasi	-	12	-	-
4.	Mehmonxona-dam olish xonasi	24	24x2	36x5	64

	(1 m ² /o'quvchiga)				
5.	Ochiq ayvon (0,72 m ² /o'quvchiga)	17	-	-	45
6.	Yotoqxona (4,5 m ² /o'quvchiga)	108	48x4	320	256
7.	Qizlar uchun shaxsiy gigiyena kabinasi va har ikki yotoqxona uchun dushxonalarga ega - sanitariya tarmog'i девочек, с душевыми на каждые две спальни		48	-	90
8.	Garderob va quritgichli vestibyul (0,5 m ² /o'quvchiga)	12	12x4=48	-	32
9.	Kiyim-kechak va poyabzal tozalash xonasi одежды и обуви	6	-	9x2=18	12
10.	Navbatchi tarbiyachi xonasi воспитателя	8	12x2=24	-	8
11.	Texnik xodimlar ombori техперсонала	6	-	-	12

V. VIII - IX sinf o'quvchilari uchun o'quv-turar joy bloki (4 ta sinf uchun)

1.	Yakka tartibdagi mashg'ulotlar xonasi (4 m ² /o'quvchiga)	192	6x4=24	-	36x4=144
2.	Mehmonxona-dam olish xonasi (1 m ² /o'quvchiga)	48	24x2=48	-	64
3.	Ochiq ayvon (0,7 m ² /o'quvchiga)	34	-	-	45
4.	2-3 kishilik yotoqxonalar (4,0-4,5 m ² /o'quvchiga)	24x8=192	48x4=192		288
5.	Har ikki yotoqxonaga bitta sanitariya- tarmog'i		12x4=48		
6.	Vestibyul, quritgichli garderob (har bir o'quvchiga 0,5 m ² dan)	24	12x4=48	-	36
7.	Kiyim-kechak va poyabzal tozalash xonasi	12			8
8.	Navbatchi tarbiyachi xonasi (omborchasi bilan) воспитателя (с кладовой)	12	12x2=24	-	8

	shaxsiy buyumlar va dahliz uchun)				
9	Omborxona xodimlar uchun	12	-	-	12
10	Toza havoda uxlash uchun ayvon	-	-	-	45
II. Umumiy maktab xonalari guruhi					
A. O'rta va yuqori sinflar uchun o'quv kabinetlari					
1.	Rus tili va adabiyoti kabineti	36	36x2=72	36	36
2.	Matematika kabineti	36	36	36	36
3.	Tarix va jamiyatshunoslik kabineti	36	36	36	36
4.	Geografiya va tabiatshunoslik kabineti	36	36	-	36
5.	Biologiya kabineti	36	40	-	-
6.	Fizika laboratoriyasi	36	40	-	36
7.	Kimyo laboratoriyasi	36	40	-	36
8.	Chizmachilik va rasm kabineti	36	50	45	36
9.	Chet tili kabineti	36	-	-	36
10.	Musiqa va ashula kabineti	36	-	45	36
11.	Laborant xonalari	18x9=162	15x3=45	-	18
12.	Qo'l mehnati kabineti	72	-	36	18
13.	Predmetli-amaliy ta'lim kabineti	-	36	-	-
14.	Xizmat ko'rsatuvchi mehnat turlari kabineti	72	-	72	-
15.	Laborant xonalari	18x2=36	12x2=24	18x9=162	-
16.	Kinoproyeksiya qurilmasi bilan jihozlangan fazoviy-vaqt mo'ljali olish sinfi	-	36	-	-
17.	Logopediya kabineti	36	-	36	-
18.	Lingafon kabineti	-	-	-	-
19.	Tabiatshunoslik, geografiya va agrotexnika kabineti	-	-	36	-
20.	80 o'rinli rekreatsiya (0,75 m ² /o'quvchi)	-	-	60	-
21.	Eshituv kabineti	-	42	-	-
22.	Individual ishlar uchun kabinet (o'qituvchi-o'quvchi)	-	6x8=48	-	-
23.	Eshitish uskunasi ta'mirlash xonasi bo'lgan texnik xodimlar xonasi	-	8+6=14	-	-
24.	Kinoproyeksiya qurilmasi bilan jihozlangan o'quv-uslubiy sinf	-	42	-	-
III. Zallar bloki					

1.	Jismoniy tarbiya, ritmika, eshitish va harakat mo'ljali rivojlantirish mashg'ulotlari uchun gimnastika zali, uning tarkibida:	$\frac{288}{12 \times 24}$	$\frac{162}{9 \times 18}$	162	162
	- yechinish xonalari, dushxonalar, hojatxonalar	$21 \times 2 = 42$	30	-	42
	- anjomlar xonasi	16	12	-	18
	- instruktor xonasi va mayda sport anjomlarini saqlash xonasi	8	8	-	8
	- qishki anjomlar omborxonasi	54	36	36	36
2.	Davolash va profilaktik gimnastika xonasi bilan massaj (tibbiy blokda yoki davolash binosida)	$72 + 18$	75	-	36×3
3.	Faollar zali ($0,65 \text{ m}^2/\text{o'quvchi}$, o'quvchilarning 70 yoki 100% uchun)	65	84	-	116
	- estrada	27	27	-	27
	- kinoapparat xonasi va radiouzel	27	27	-	25
	- to'garak xonalari	-	$18 \times 2 = 36$	-	18×6
	- anjomlar xonasi	-	8	-	-
	- yuvinish vositasi bo'lgan sanuzel	-	normalar bo'yicha	-	-
4.	Kutubxona	-	54	72	-
	- qiroatxona va abonement bo'limi	$36 + 18$	36	-	$36 + 36$
	- kitob saqlash xonasi	90	-	-	18
	- fonoteka	18	-	-	18
	- ovoz yozish va eshittirish yoki video yozish xonasi	36	10	-	-
5.	Muzey va ko'rgazmalar zali	36	30	-	-
6.	Loydan yasash va bo'rtma naqshli rasm chizish kabineti	54	-	-	-
7.	Vannasi 3×7 bo'lgan suzish havzasi	-	129	-	-
8.	Musiq bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish xonasi	6×8 (72)	-	-	-
IV. O'quv-ishlab chiqarish xonalari bloki					
1.	Yog'ochga ishlov berish (duradgorlik) ustaxonasi	54	60	72	54
2.	Chilangarlik	54	60	72	54

	ustaxonasi				
3.	Mexanika uchastkasi	36		36	36
4.	Elektromontaj ustaxonasi	72	60	-	-
5.	Kartonaj ustaxonasi (o'quv qo'llanmalari va daftarlar tayyorlash uchun)	72	-	-	36
6.	Omborxonalar	72(4x18)	-	18x3=54	36
7.	Materiallar ombori	36 (2x18)	24 (12x2)	-	36
8.	Tayyor mahsulotlar ombori	36	18	36	-
9.	Ishlab chiqarish bo'limi mudiri xonasi	18	8		-
10.	Tikuvchilik ustaxonasi	-	60		36
11.	Poyabzal ta'mirlash ustaxonasi	-			36
12.	Laborant xonalari	-			
13.	Ijtimoiy-maishiy yo'naltirish kabineti	-	36	72	73
14.	Kasbga yo'naltirish kabineti	-	36	-	-
15.	Asbob-uskunalar ombori	-	-	18	-

V. Ma'muriy-xo'jalik va yordamchi xonalar bloki

1.	Direktor kabineti	36	15+10=25	18	36
2.	Devonxona	9		18	18
3.	O'qituvchilar xonasi	36	36	54	36
4.	O'quv ishlari bo'yicha mudir kabineti	18	10	18	18x3
5.	Uslubiy kabinet	36	15	-	-
6.	Katta (navbatchi) tarbiyachi kabineti	-	9x4=36	18x2=36	-
7.	Kelgan mehmonlar uchun xona	18		14+18	-
8.	Kir yuvish xonasi (iflos kiyimlar uchun)	18	10	18	9
9.	Choyshabxona va kiyimlarni ta'mirlash xonasi	36	36	36	18
10.	Choyshabxona va poyabzal ta'mirlash xonasi	-	10	9	-
11.	Mavsumiy kiyim-kechak va poyabzallarni saqlash xonasi	36	36	54	36x2
12.	Yangi buyumlar xonasi	18	-	-	36

13.	Dahliz va garderob	18	36	45	25
14.	Fotolaboratoriya	18	8	8	18
15.	Tozalash anjomlari xonasi	18	-	-	18
16.	Poyabzal va protezlarni ta'mirlash va moslashtirish ustaxonalari	-	-	-	36
17.	Oshxona-oziq-ovqat bloki				
	ovqatlanish zali / o'rindiqlar soni bo'yicha - 75 - 144 - 140 - 96	98	94	91	123 (1 o'ringa 1,3)
	ishlab chiqarish binolari	120	150	113	-
	xodimlar xonasi	-	8	11	-
	omborxonalar	-	6x2=12	-	-
Izolyatorli tibbiyot bloki					
1.	Terapevt shifokor kabineti	18	10	12	
2.	Tish shifokori kabineti	18	12	12	12
3.	Pediatr kabineti	-	-	-	12
4.	Oftalmologiya kabineti:				
	yorug' xona	18	-	-	-
	qorong'i xona	6	-	-	-
5.	Fizioterapiya kabineti	18	12	15	18
6.	Muolaja xonasi	18	12	15	18
7.	Palatalar	12 (2x6)	12x2=24	12x2=24	12x2
8.	Izolyatsiya palatalari - maktab yoshdagilar uchun - maktabgacha yoshdagilar uchun	12(2x6)	24 10	9x4=36	9x4
9.	Tarqatish bufeti	6	6	6	6
10.	Hamshira xonasi	9	8		6
11.	Pediatr kabineti	9	8	6	6
12.	Nevropatolog kabineti	-	-	-	12
13.	Issiq o'rash va ozokerit kabineti	-	-	-	36
14.	Parafin, ozokerit xonalari	-	-	-	36
15.	Gips xonasi	-	-	-	36
16.	Ortoped kabineti	-	-	-	36
17.	Davolash jismoniy tarbiyasi kabineti	72+18	75		36x3

18.	Mehnat terapiyasi kabineti	-	-	-	36
19.	Muolajadan keyin dam olish uchun palatalar				18x2
20.	Dorixona	5	5	3	6
21.	Vannaxona (suv osti massaji)	5	5	5	72
22.	Ikki yo‘lakli basseyn va kichik maktab yoshidagilar uchun vanna (4,5x4,5)	-	-	-	-
23.	Audiometriya kabinali otolaringolog kabineti	-	10+4=14	-	-

**Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun
mo'ljallangan turli yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan bir komplektli maktab-
internatlarning xonalari tarkibi va maydonlari.**

Xonalarning nomi	Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun	Kar, zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun	Aqli zaif bolalar uchun	Tayanch-harakat apparati shikastlangan bolalar uchun
1	2	3	4	5
I. O'quv va yashash xonalari guruhi				
A. I–IV sinf o'quvchilari uchun o'quv-yashash bo'lmasi (ikki sinfga mo'ljallangan)				
1. Sinfxona	36×2	36×4	36×4	36×2
2. Individual mashg'ulotlar uchun joyi bo'lgan laborant xonasi		24 (12×2)	-	-
3. Dam olish-mehmonxona (rekreatsiya)	24	24×2=48		32
4. O'yin xonasi	18	20×4=80	24×4=96	16
5. Ochiq ayvon	17			23
6. Yotoqxonalar (4m ² /o'quvchiga)	96	42×4=192	16×4=256	16
7. Har bir juft yotoqxonaga mo'ljallangan dushxonalar va qizlar uchun shaxsiy gigiyena kabinasi bo'lgan sanitariya tarmog'i		12×4=48	72	
8. Quritgichli vestibul va gardero	12	12	8×4=32	16
9. Kiyim va poyabzal tozalash xonasi	6	-	-	6
10. Shaxsiy buyumlarni saqlash omborchasi bo'lgan navbatchi tarbiyachi xonasi	8	-	-	8
11. Texnik xodimlar uchun omborcha	6	-	-	6
B. V–VII sinf o'quvchilari uchun o'quv-yashash bo'lmasi (2–4 sinfga mo'ljallangan)				

1. Sinfxona	36×2	36×2	-	36×4
2. Individual mashg'ulotlar uchun xona		6×4=24	-	-
3. Shkaf va individual ishlash uchun joyi bo'lgan laborant xonasi		12	-	-
4. Dam olish-mehmonxona (rekreatsiya) (1 m ² /o'quvchiga)	24	24×2	36×5	64
5. Ochiq ayvon (0,72m ² /o'quvchiga)	17	-	-	45
6. Yotoqxonalar (4,5m ² /o'quvchiga)	108	48×4	320	256
1	2	3	4	5
7. Har ikki yotoqxonaga mo'ljallangan dushxonalar va qizlar uchun shaxsiy gigiyena kabinasi bo'lgan sanitariya tarmog'i		48		90
8. Garderob va quritgichli vestibul (0,5 m ² /o'quvchiga)	12	12×4=48		32
9. Kiyim va poyabzal tozalash xonasi	6	-	9×2=18	12
10. Navbatchi tarbiyachi xonasi	8	12×2=24		8
11. Texnik xodimlarning omborxonasi	6			12
V. IX-XII sinf o'quvchilari uchun o'quv-yashash bo'lmasi (4 ta sinfga mo'ljallangan)				
1. Yakka tartibda shug'ullanish xonasi (4m ² /o'quvchi)	192	6×4=24	-	36×4=265
2. Mehmonxona-dam olish xonasi (1 m ² /o'quvchi)	48	24×2=48	-	64
3. Ochiq ayvon (0,7 m ² /o'quvchi)	34	-	-	45

4. 2-3 kishilik yotoqxonalar (4,0-4,5 m ² /o'quvchi)	24×8=192	48×4=192		288
5. Har ikki yotoqxonaga bittadan sanitariya xonasi		12×4=48		
6. Vestibul, quritgichli gardero (har bir o'quvchiga 0,5 m ² dan)	24	12×4=48	-	36
7. Kiyim va poyabzal tozalash xonasi	12			8
8. Navbatchi tarbiyachining xonasi (shaxsiy buyumlar omborxonasi va dahlizi bilan)	12	12×2=24	-	8
9. Xodimlarning omborxonasi	12	-	-	12
10. Ochiq havoda uxlash uchun ayvon		-	-	45

II. Umummaktab xonalari guruhi

A. O'rta va yuqori sinflar uchun o'quv kabinetlari

1. Rus tili va adabiyoti kabineti	36	36×2=64	36	36
2. Matematika kabineti	36	36	36	36
3. Tarix va jamiyatshunoslik kabineti	36	36	36	36
4. Geografiya va tabiatshunoslik kabineti	36	36	-	36
5. Biologiya kabineti	36	40	-	-
6. Fizika laboratoriyasi	36	40	-	36
7. Kimyo laboratoriyasi	36	40	-	36
1	2	3	4	5
8. Chizmachilik va rassomchilik kabineti	36	50	45	36
9. Chet tili kabineti	36	-	-	36

10. Musiqa va ashula kabineti	36	-	45	36
11. Laborant xonalari	$18 \times 9 = 162$	$15 \times 3 = 15$	-	18
12. Qo'l mehnati kabineti	72		36	18
13. Amaliy fanlar o'quv kabineti	-	36	-	-
14. Xizmat ko'rsatish mehnat turlari kabineti	72	-	72	-
15. Laborant xonalari	$18 \times 2 = 36$	$12 \times 2 = 24$	$18 \times 9 = 162$	-
16. Kino proyeksiyalash qurilmasiga ega fazoviy-vaqtga yo'naltirish sinfi		36		-
17. Logopediya kabineti	36	-	36	-
18. Lingafon kabineti		-	-	-
19. Tabiatshunoslik, geografiya va agrotexnika kabineti	-	-	36	-
20. Dam olish xonasi (0,75 m ² /o'quvchi) 80 o'rinli			60	
21. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish kabineti	-	42	-	-
22. Yakka tartibdagi mashg'ulotlar uchun kabinet (o'qituvchi-o'quvchi)	-	$6 \times 8 = 48$	-	-
23. Eshitish uskunasi ta'mirlash xonasi mavjud bo'lgan texnik xodimlar xonasi	-	$8 + 6 = 14$	-	-
24. Kinoproeksiya qurilmasi bilan	-	42	-	-

jihozlangan o'quv-uslubiy sinf				
Iii. Zallar bloki				
1. Jismoniy tarbiya, ritmika, eshitish va harakat orientatsiyasini rivojlantirish mashg'ulotlari uchun gimnastika zali uning tarkibida: a) kiyinish xonalari, dushxonalar, hojatxonalar b) anjomlar xonasi v) yo'riqchi xonasi va mayda sport anjomlarini saqlash joyi g) qishki anjomlar ombori	21×2=42 16 8 54	30 12 8 36	162 - - 36	162 42 18 8 36
1	2	3	4	5
2. Uqalash xonasi mavjud bo'lgan davolash va profilaktik gimnastika zali-sinfi (tibbiyot bloki yoki davolash korpusida)	72+18	75		36×3
3. Majlislar zali (0,65 m ² /o'quvchi, o'quvchilarning taxminan 70 yoki 100%i) a) sahna b) kinoapparatxona-radiouzel v) to'garak xonalari g) anjomlar xonasi d) yuvinish xonasi bilan jihozlangan sanuzel	65 27 27 - -	84 27 27 18×2=36 8 me'yorlarga muvofiq	-	116 27 25 18×6 -
4. Kutubxona a) o'quv zali va abonement	36+18 90 18 36	54 36 10	72 - -	- 36+36 18 18

b) kitob saqlash xonasi v) fonoteka g) ovoz yozish va qayta eshittirish yoki videoyozuv xonasi				-
5. Muzey va ko'rgazma zali	36	30	-	-
6. Loy ishlari va bo'rtma rasm kabineti	54	-	-	-
7. Vannasi 3×7 m-bo'lgan suzish havzasi	-	129		
8. Musiqa bo'yicha yakka tartibdagi mashg'ulotlar uchun xona	6×8(72)	-	-	-
IV. O'quv-ishlab chiqarish xonalari bloki				
1. Yog'ochga ishlov berish ustaxonasi (duradgorlik)	54	60	72	54
2. Chilangarlik ustaxonasi	54	60	72	54
3. Mexanika uchastkasi	36		36	36
4. Elektromontaj ustaxonasi	72	60		-
5. Kartonaj ustaxonasi (o'quv qo'llanmalari va daftarlar tayyorlash uchun)	72			36
6. Omborxonalar	72(4×18)		18×3=54	36
7. IRK	9			9
8. Materiallar omborlari	36 (2×18)	24 (12×2)		36
9. Tayyor mahsulotlar ombori	36	18	36	-
10. Ishlab chiqarish bo'linmasi mudiri xonasi	18	8		-
11. Tikuvchilik ustaxonasi	-	60		36

12. Poyabzal-ta'mirlash ustaxonasi	-			36
1	2	3	4	5
13. Laborantxonalar	-			
14. Ijtimoiy-maishiy yo'naltirish xonasi	-	36	72	73
15. Kasbga-yo'naltirish xonasi	-	36	-	-
16. Asbob-uskunalar ombori	-		18	
V. Ma'muriy-xo'jalik va yordamchi xonalar bloki				
1. Direktor xonasi	36	15+10=25	18	36
2. Devonxona	9		18	18
3. O'qituvchilar xonasi	36	36	54	36
4. O'quv ishlari bo'yicha mudir xonasi	18	10	18	18×3
5. Metodik xona	36	15		
6. Katta-(navbatchi) tarbiyachi xonasi	-	9×4=36	18×2=36	
7. Mehmonlar xonasi	18		14+18	-
8. Kir kiyimlar xonasi	18	10	18	9
9. Choyshabxona va kiyimlarni ta'mirlash xonasi	36	36	36	18
10. Choyshabxona va poyabzallarni ta'mirlash xonasi	-	10	9	-
11. Mavsumiy kiyim-kechak va poyabzallarni saqlash xonasi	36	36	54	36×2
12. Yangi buyumlar xonasi	18	-	-	36
13. Vestibyul va garderob	18	36	45	25
14. Fotolaboratoriya	18	8	8	18
15. Tozalash anjomlari xonasi	18			18
16. Poyabzal va protezlarni				36

ta'mirlash hamda moslash ustaxonalari				
17. Oshxona-ovqat bloki	98 120	94 150	91 113	123 (1 o'ringa 1,3)
a) 75 o'rinli ovqatlanish zali	-	8 $6 \times 2 = 12$	11	
144 o'rinli				
140 o'rinli				
96 o'rinli				
b) ishlab chiqarish xonalari				
v) xodimlar xonasi				
g) omborxonalar				
Izolyatorli tibbiyot bloki				
1. Terapevt shifokor xonasi	18	10	12	
2. Tish shifokori xonasi	18	12	12	12
3. Pediatr xonasi				12
1	2	3	4	5
4. Oftalmologiya xonasi:	18 6			
a) yorug' xona				
b) qorong'i xona				
5. Fizioterapiya xonasi	18	12	15	18
6. Muolaja xonasi	18	12	15	18
7. Palatalar	$12(2 \times 6)$	$12 \times 2 = 24$	$12 \times 2 = 24$	12×2
8. Izolyatsiya palatalari (maktab) -(maktabgacha ta'lim muassasasi)	$12(2 \times 6)$	24 10	$9 \times 4 = 36$	9×4
9. Bufet-tarqatish xonasi	6	6	6	6
10. Hamshira xonasi	9	8		6
11. Shifokorlar xonalari: pediatr	9	8	6	6
12. Nevropatolog-xonasi	-	-	-	12
13. Issiq o'rash va ozokerit xonasi				36
14. Parafinli, ozokeritli muolajalar xonasi				36
15. Gips xonasi				36

16. Ortoped shifokor xonasi				36
17. Davolash fizkulturasi xonasi	72+18	75		36×3
18. Mehnat-terapiyasi xonasi	-	-	-	36
19. Muolajadan keyingi dam olish palatalari				18×2
20. Dorixona	5	5	3	6
21. Vannaxona (suv osti massaji)	5	5	5	72
22. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun 2 yo'lakli basseyn va vanna (4,5×4,5)				
23. Audiometriya-kabinali otolaringolog xonasi	-	10+4=14	-	-

Ko‘rish va eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktab-internatlar binolarida sun’iy yoritishning me’yoriy qiymatlari

Binoning nomi	Lyuminessent lampali umumiy yoritish chiroqlaridan tushadigan eng kam yoritilganlik (lk)	Yoritilganlik darajasi taalluqli bo‘lgan yuzalar	Izoh
1	2	3	4
1. Sinf xonalari*, o‘quv kabinetlari, laboratoriyalar: a) partalar, stollar b) sinf doskalari	500 500	Poldan 0,8 m balandlikdagi gorizontal yuza Sinf doskasida vertikal	
2. Faollar zali	400	Poldagi yuza	
3. Sport zallari	400	Poldagi yuza	
4. Rekreatsiyalar va yo‘laklar	300		
5. Qiroatxona*	500	Poldan 0,8 m balandlikdagi gorizontal yuza	Umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda stollarni mahalliy yoritish uchun mo‘ljallangan stol lampalari bilan jihozlash zarur.
6. Metallga ishlov berish ustaxonalari*	500	-“-	Umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda dastgohlar va verstaklar mahalliy yoritish moslamalari bilan jihozlanishi lozim. Bunda umumiy yoritilganlik kamida 1000 lk bo‘lishi kerak. Mahalliy yoritish chiroqlarida past kuchlanishli cho‘g‘lanma lampalarni qo‘llash tavsiya etiladi
7. Tikuvchilik ustaxonalari*	500	Gorizontal sirtida, poldan 0,8 m balandlikda	Umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda tikuv mashinalari mahalliy yoritish moslamalari bilan

			jihozlanishi lozim. Bunda umumiy yorug'lik darajasi 1500 lk dan kam bo'lmasligi kerak. Mahalliy yoritish chiroqlarida past kuchlanishli lampalarni qo'llash tavsiya etiladi
8. Kartonaj ustaxonalari	500	—“—	
9. Oshxonalar, bufetlar	400	—“—	
10. Izolyatorlar	300	—“—	
1	2	3	4
11. Internatdagi yotoqxonalar	200	—“—	
12. Yo'laklar	200	Polda	
13. Vestibyullar, garderoblar	200	—“—	
14. Zinapoyalar	200	Zinapoya maydonchalari va pillapoyalarida	
15. Sanuzellar	100	Polda	Cho'g'lanma lampali yoritish chiroqlarini qo'llashga yo'l qo'yiladi

* Ushbu me'yorlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlar xonalariga taalluqlidir. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun xonalarni sun'iy yoritish me'yorlari (1, 6, 7, 8-bandlar) uchun IV bo'limga qarang.

**Maxsus turdagi ikki komplektli maktab-internatlardagi xonalarning
tarkibi va maydonlari**

T/r	Xonalarning nomi	Bolalar uchun maydon, m ²			
		ko'zi ojiz va zaif ko'radigan	kar, zaif eshitadigan va nutqida nuqsoni bo'lgan	aqli zaif	tayanch-harakat apparati shikastlangan
		o'rinlar soni			
		282	294	292	292
1	2	3	4	5	6
I. O'quv-turar joy xonalari guruhi					
A. I–IV sinf o'quvchilari uchun ikki sinfga mo'ljallangan o'quv-yashash bo'linmasi					
1.	Sinf xonalari	2×40	2×36	2×32	2×32
2.	Dam olish xonasi (rekreatsiya)	24	19	22	32
3.	O'yin xonasi (1 o'quvchiga 0,5 m ² hisobida)	12	12	16	16
4.	Ochiq ayvon	17	—	—	48
5.	Yotoqxona (1 o'quvchiga 3,5 va 4 m ² hisobida)	96	84	112	128
6.	Qizlar uchun shaxsiy gigiyena xonasi bo'lgan sanitariya uzeli (1 o'quvchiga 0,5 va 0,6 m)	15	12	16	19
7.	Dahliz va quritgichli garderoab (1 o'quvchiga 0,4 va 0,5 m)	0,5/1	0,4/1	0,4/1	0,5/1
8.	Kiyim tozalash xonasi	6	6	6	6
9.	Navbatchi tarbiyachi xonasi	6	6	6	6
10.	Texnik xodimlar uchun omborxona	6	6	6	6
B. O'rta va katta yoshdagilar uchun o'quv-yashash bo'linmasi (ikki sinf uchun)					
1.	Sinf xonalari	I-IX sinflar 4x40	V-IX sinflar 4x36	V-IX sinflar 4x32	V-IX sinflar 4x32
2.	Mehmonxona-dam olish xonasi (1 o'quvchiga 0,8-1 m)	48	38	51	64
4-ilovaning davomi					
1	2	3	4	5	6

3.	Ochiq ayvon	34	-	-	96 72
4.	Yakka tartibdagi mashg'ulotlar xonalari	4×6 24	4×6 24	4×6 24	4×8 32
5.	Yotoqxonalar	216	192	256	256 216
6.	Qizlar uchun shaxsiy gigiyena kabinasi va dush xonalari bo'lgan sanitariya qismi	29	24	32	38 1 kishiga 0,6
7.	Garderob va quritgichli dahliz	24	19	26	32
8.	Kiyim va poyabzal tozalash xonasi	12	8	8	8 6
9.	Navbatchi tarbiyachi xonasi	6	6	6	8 8
10.	Texnik xodimlar uchun omborxona	12	12	12	12 12

II. Umumta'lim maktabi xonalari guruhi

A. Umumta'lim maktabi o'quv xonalari bloki

1.	Laboratoriyalar:				
	- fizika	60	40	-	50
	- kimyo	50	40	-	50
	- biologiya	50	40	-	-
2.	Laborant xonalari:				
	- fizika	15	15	-	15
	- kimyo	15	15	-	15
	- biologiya	15	15	-	15
3.	Kabinetlar:				
	- matematika	50	-	-	50
	- tarix	50	-	-	-
	- geografiya	60	-	-	50
	- adabiyot va san'at	60	-	-	50
	- loy ishi va bo'rtma rasm	60	-	-	-
4.	Loy ishi va rasm kabinet qoshidagi laborant xonasi	15	-	-	-
5.	Tabiatshunoslik va o'lkashunoslik kabinet	50	-	-	-
6.	Musiqqa kabinet	60	-	-	-
7.	Musiqqa bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish xonasi	50	-	-	-
8.	Elektrotexnika va radiotexnika kabinet	50	-	-	-
9.	Elektrotexnika kabinet	15	-	-	-

	qoshidagi laborant xonasi				
10.	Umumiy foydalanishdagi o'qitishning texnik vositalari kabinet qoshidagi laborant xonasi	15	-	-	-
11.	Mashinasozlik va materialshunoslik kabinet	60	-	-	-
12.	Kabinet qoshidagi laborant xonasi mashinashunoslik	15	-	-	-
13.	Kabinetlar:				
	- umumiy foydalanishdagi texnik vositalar	60	-	-	-
	- rangtasvir va rasm	-	50	-	50
	- uy-ro'zg'orchilik	60	36	36	66
	- qo'l mehnati	50	36	48	36
	- tabiatshunoslik va agrotehnika	-	-	-	50
B. Zallar bloki					
1.	Gimnastika zali Jismoniy tarbiya, ritmika, bolalarda eshitish va harakat orientatsiyasini rivojlantirish uchun	238 (12x24)	162 (9x18)	162	162
	- kiyinish xonalari, dushxonalar, hojatxonalar	42	42	42	42
	- anjomlar xonasi	16	16	16	16
	instruktor xonasi va mayda sport anjomlarini saqlash xonasi	8	8	8	8
2.	Majlislar zali, shu jumladan:	150	120	138	223
	- sahna	27	27	27	27
	- kinoapparat xonasi-radiouzel	25	25	25	25
3.	To'garak xonalari	2x24	24	24	24
V. O'quv-ishlab chiqarish xonalari bloki					
1.	Duradgorlik ustaxonasi	66	66	80	36
2.	Chilangarlik ustaxonasi	66	66	66	36
3.	Kartonaj ustaxonasi	82	-	66	36

4.	Elektromontaj ustaxonasi	66	66	-	-
5.	Mexanika ustaxonasi	66	-	-	-
6.	Asbobsozlik ustaxonasi	16	16	16	16
7.	Materiallarni saqlash xonasi	16	-	-	-
8.	Tayyor mahsulotlar ombori	32	32	64	16
9.	Mashina bo'linmasi	20	32	64	16
10.	Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari kabineti	8	-	-	-
11.	Tikuvchilik ustaxonasi	-	66	66 (32x2)	36
12.	Radiotexnika ustaxonasi	-	-	-	36
13.	Ortopedik apparatlarni ta'mirlash ustaxonasi	-	-	-	36
G. Oshxona bloki					
1.	Ovqatlanish zali	69	105	105	200
2.	Oshxona	55	85	55	55
3.	Oshxona va ovqatlanish idishlarini yuvish xonasi	18	18	18	20
4.	Ishlab chiqarish xonalari	36	36	36	36
5.	Non kesish xonasi	6	6	6	6
6.	Sovutish kamerasi	15	15	15	24
7.	Quruq oziq-ovqatlar ombori	10	10	10	12
8.	Sabzavotlar ombori	10	10	10	12
9.	Yuklash-idora xonasi	10	10	10	10
10.	Texnik xodimlar uchun garderoab va sanitariya xonasi	10	10	10	10
11.	Ovqatlanish zalidagi yuz-qo'l yuvgichlar (10 o'ringa 1 yuz-qo'l yuvgich)	-	1	-	-
D. Ma'muriy-xo'jalik va yordamchi binolar bloki					
1	O'qituvchilar xonasi	50	40	40	40
2	O'quv qo'llanmalari xonasi	8	8	8	8
3	Direktor kabineti	15	15	15	15
4	Devonxona	15	15	15	15
5	O'quv ishlari bo'yicha mudir kabineti	8	8	8	8
6	Katta tarbiyachi kabineti	8	8	8	8
7	Texnik xodimlar xonasi	8	-	-	-
8	Xo'jalik omborxonasi	12	12	12	16

9	Kiyim ilgichli vestibyul	50	40	40	80
10	Tashrif buyuruvchi ota-onalar uchun mehmonxona	18	15	15	20
11	Sport anjomlari omborxonasi	40	30	30	36
12	Fotolaboratoriya	6	6	6	6
13	Choyshabxona va choyshablarni ta'mirlash xonasi	30	30	30	66
14	Poyabzal ta'mirlash xonasi	12	12	12	20
15	Kir choyshablarni saqlash xonasi	15	-	-	-
16	Mavsumiy kiyim-kechak va poyabzal omborxonasi	60	60	60	72
17	Protezlar ta'mirlash xonasi	-	-	-	-
18	Kutubxona:				
	- o'quv zali va abonement	80	24	46	60
	- kitob saqlash xonasi	164 (60)	24	24	32
	- fonoteka	20	-	-	-
	- ovoz yozish va tovushni qayta eshittirish xonasi	36	-	-	-
19	Maktab muzeyi va ko'rgazmalar zali, shu jumladan, arxiv	80 (24)	-	-	-
* - Qavslarda faqat ko'zi ojizlar maktablari uchun xonalarning o'lchamlari berilgan					
E. Tibbiyot bloki va izolyator					
1	Terapevt shifokor kabineti	10	10	10	10
2	Tish shifokori kabineti	12	12	12	12
3	Oftalmologik kabinet:				
	- yorug' xona	18	-	-	-
	- qorong'i xona	6	-	-	-
4	Fizioterapiya kabineti:				
	- nur bilan davolash	15	15	15	15
	- suv bilan davolash	15	-	-	15
5	Palatalar	$\frac{30}{12+18}$ (3x6)	$\frac{30}{12+18}$ (3x6)	$\frac{30}{6+24}$ (4x6)	$\frac{72}{12+60}$ (5x12)
6	Sanuzelli izolyator palatalari:				
	- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	$\frac{9}{18}$	$\frac{9}{18}$	$\frac{9}{18}$	$\frac{9}{27}$

	- maktab o'quvchilari uchun	2x9	2x9	2x9	3x9
7	Tarqatish bufeti	6	6	6	6
8	Vannaxona	3	3	3	3
9	Sanitarik uzal	2	2	2	2
10	Audiometrik kabinali otolaringolog shifokor kabineti	-	18(6x3)	-	-
11	Psixiatr shifokor kabineti	-	-	10	-
12	Muolaja xonasi	15	15	15	15
13	Davolash jismoniy tarbiyasi kabineti	80	50	50	150
14	Ko'rish qobiliyatini rivojlantirish va saqlash bo'yicha optik vositalar korreksiyasi xonasi	50	-	-	-
15	Eshituv kabineti	-	32	-	
16	Logopediya kabineti	50	32	$\frac{45}{3}$ Ch15	-
17	Shifokor (pediatr) xonasi	-	-	-	10
18	Shifokor (nevropatolog) xonasi	-	-	-	10
19	Ozokerit xonasi	-	-	-	30
20	Rentgen kabineti	-	-	-	30
21	Shifokor (ortoped) xonasi	-	-	-	25
22	Protezlash kabineti	-	-	-	30
23	Gips xonasi	-	-	-	25
24	Mehnat terapiyasi kabineti	-	-	-	25
25	Gidroterapiya kabineti (suzish havzasi)	-	-	-	70
26	Parafin bilan davolash xonasi	-	-	-	25
27	Kabinet: - ozokerit - yechinish xonalari, dushxonalar - suv osti massaji uchun vannalar (havza qoshida)	-	-	-	25
28	Dorixona xonasi	6	-	-	6

5-ilova

Ko‘rish va eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktab-internatlar xonalaridagi sun‘iy yoritishning me‘yoriy qiymatlari

T/r	Xonalarining nomi	Lyuminestsent lampali umumiy yoritish chiroqlaridan tushadigan eng kam yoritilganlik (lk)	Yoritilganlik taalluqli bo‘lgan yuza	Izoh
1	2	3	4	5
1	Sinfxonalar*, o‘quv kabinetlari, laboratoriyalar: - partalar, stollar - sinf doskalari	500 500	gorizontal yuza – poldan 0,8 m balandlikda sinf doskasidagi vertikal yuza	-
2	Faollar zali	400	polda	-
3	Sport zali	400	polda	-
4	Rekreatsiyalar va yo‘laklar	300	-	-
5	O‘quv zali*	500	gorizontal yuza – poldan 0,8 m balandlikda	umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda stollarni mahalliy yoritish chiroqlari bilan jihozlash zarur
6	Metallga ishlov berish ustaxonasi*	500	gorizontal yuza – poldan 0,8 m balandlikda	stanoklar va dastgohlar umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda mahalliy yoritish moslamalari bilan ham jihozlanishi lozim. bunda umumiy yoritilganlik 1000 lk dan kam bo‘lmasligi kerak. mahalliy yoritish moslamalarida past kuchlanishli cho‘g‘lanma lampalardan foydalanish tavsiya etiladi.
7	Tikuvchilik ustaxonasi*	500	gorizontal poldan 0,8 m balandlikda	umumiy yoritishga qo‘shimcha ravishda tikuv mashinalari mahalliy yoritish moslamalari bilan jihozlanishi lozim. bunda umumiy yoritilganlik 1500 dan kam bo‘lmasligi kerak.

				mahalliy yoritish moslamalarida past kuchlanishli lampalardan foydalanish tavsiya etiladi.
8	Kartonaj ustaxonasi	500	gorizontal poldan 0,8 m balandlikda	--
9	Oshxona, bufet	400	gorizontal poldan 0,8 m balandlikda	--
10	Izolyator	300	gorizontal poldan 0,8 m balandlikda	--
11	Yotoqxona (internatdagi xona)*	200	gorizontal poldan 0,8 m balandlikda	--
12	Yo‘lak	200	polda	-
13	Vestibyul, gardero	200	polda	-
14	Zina	200	zina maydonchalari va pog‘onalarida	-
15	Sanuzel	100	polda	cho‘g‘lanma lampali yoritish moslamalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi

Izoh: * – ushbu normativlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan maktab-internatlar xonalariga taalluqlidir. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan xonalarning sun’iy yoritilish normativlari (4.1, 4.6, 4.7, 4.8-bandlar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi 657-XII-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-sonli Qonuni.
3. QMQ 2.07.01-94 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlarini rejalashtirish va qurish".
4. QMQ 2.01.05-98 «Tabiiy va sun'iy yoritish».
5. QMQ 2.04.01-97 «Binolarning ichki suv quvurlari va kanalizatsiyasi».
6. QMQ 2.01.01-94 «Loyihalashtirish uchun iqlimiy va fizik-geologik ma'lumotlar».
7. QMQ 2.01.03-96 «Seysmik hududlarda qurilish».
8. QMQ 2.01.03-96 «Shovqindan himoya qilish».
9. ShNQ 2.08.02-07 «Jamoat binolari va inshootlari».
10. ShNQ 2.01.02-04 «Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi».
11. ShNQ 2.07.02-07 «Nogironlar va aholining kam harakatlanuvchi guruhlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda hayotiy faoliyat muhitini loyihalashtirish».
12. ShNQ 2.08.01-07 «Turar joy binolari».
13. ShNQ 2.08.07-09 «Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari».
14. GOST 950-2000 «Ichimlik suvi. Sifat nazoratiga qo'yiladigan gigiyenik talablar».
15. GOST 22046 «O'quv muassasalari uchun mebellar».
16. GOST 26682 «Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mebellar. Funksional o'lchamlar».
17. O'zR SanQvaM 0159-04 «O'quvchilar mebeliga oid gigiyenik me'yorlar».
18. O'zR SanQvaM №0219-07 «Bolalar uylari va yordamchi, sanatoriy-maktab-internatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning o'rtacha sutkalik ratsional me'yorlari va ovqatlanishni tashkil etishga qo'yiladigan gigiyenik talablar».
19. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida mebellardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.
20. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to'g'risidagi nizom (2011-yil 13-sentyabrdagi 256-son).